

TASDIQLANGAN
“UZUM FINTECH HUB” MChJ direktori buyrug‘i bilan
2026 yil 31 mart

OMMAVIY SHARTNOMA (OFERTA)
UZUM NASIYA PLATFORMASIGA QO‘SHILISH TO‘G‘RISIDA

Toshkent

2026 yil 1 aprel

Mazkur hujjat “UZUM FINTECH HUB” mas’uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o‘rinlarda — **“Operator”**) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq, muomala layoqatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi rezidenti jismoniy shaxslarga yo‘naltirilgan ommaviy taklif (ommmaviy oferta) hisoblanadi va **UZUM NASIYA Platformasiga qo‘shilish to‘g‘risidagi shartnomani** (keyingi o‘rinlarda — **“Shartnoma”**) tuzishni nazarda tutadi.

Mazkur Shartnomada ko‘rsatilgan harakatlarni amalga oshirish jismoniy shaxs tomonidan ushbu Shartnoma shartlarini to‘liq va pisandasiz qabul qilish (aksept) hisoblanadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 365 va 370-moddalariga muvofiq Shartnomani tuzilgan deb e‘tirof etiladi.

1. ATAMALAR VA TA‘RIFLAR

Mazkur Shartnomada foydalanilgan atamalar quyidagi ma‘nolarga ega:

1.1. **UZUM NASIYA Platformasi** – Operatorning dasturiy ta‘minoti hamda axborot-texnik, tashkiliy-huquqiy va boshqa vositalar majmui bo‘lib, Platforma ishtirokchilari o‘rtasida texnik, texnologik va axborot almashinuvini ta‘minlaydi hamda mijozlarga, merchantlarga va boshqa ishtirokchilarga masofaviy tarzda xizmatlar ko‘rsatadi.

UZUM NASIYA Platformasiga kirish UZUM NASIYA interfeyslari orqali ham, Bank-hamkor interfeyslari orqali ham amalga oshirilishi mumkin bo‘lib, mijozlarga, shu jumladan, tegishli kredit mahsulotlarini hamda boshqa xizmatlarni masofaviy tarzda olish imkonini beradi.

Mazkur band maqsadlarida quyidagi atamalar quyida keltirilgan ma‘nolarga ega:

1.1.1. **UZUM NASIYA interfeyslari** — UZUM NASIYA Platformasining mijozlar bilan o‘zaro aloqa qilish uchun mo‘ljallangan vizual qismi bo‘lib, mijozga kredit mahsulotlarini olish va UZUM NASIYA Platformasi doirasida boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi, bunda ushbu imkoniyatlar Operator tomonidan texnik imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanadi.

UZUM NASIYA interfeyslari quyidagilarni o‘z ichiga oladi (lekin ular bilan cheklanmaydi):

- i. **UZUM NASIYA mobil ilovasi** — UZUM NASIYA Platformasining mijozga ko‘rinadigan vizual qismi bo‘lib, iOS va Android operatsion tizimlari uchun mobil ilova shaklida amalga oshirilgan;
- ii. **Veb-interfeys (web-view)** — UZUM NASIYA Platformasining mijozga ko‘rinadigan vizual qismi bo‘lib, Operatorning internet tarmog‘ida <https://uzumnasiya.uz/> manzilida joylashtirilgan veb-sayti;
- iii. **QR-interfeys** — UZUM NASIYA Platformasining QR-kod (Quick Response Code) shaklida amalga oshirilgan vizual qismi bo‘lib, mijoz qurilmasi kamerasi orqali boshqa interfeyslarga yoki Bank-hamkorning UZUM NASIYA interfeyslariga tezkor o‘tish imkonini beruvchi ikki o‘lchovli shtrix-kodlardan foydalanadi.

1.1.2. **Bank-hamkor interfeyslari** — Bank-hamkorning masofaviy bank xizmatlari tizimining (keyingi o‘rinlarda — **“MBX”**) mijozlar bilan o‘zaro aloqa qilish uchun mo‘ljallangan vizual qismi bo‘lib, mijozga bank xizmatlaridan foydalanish, MBX doirasida tegishli operatsiyalarni amalga oshirish, shuningdek UZUM

NASIYA Platformasiga kirish imkonini beradi, bunda ushbu imkoniyatlarning mavjudligi Bank-hamkor tomonidan texnik imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanadi.

Bank-hamkor interfeyslari quyidagilarni o'z ichiga oladi (lekin ular bilan cheklanmaydi):

- i. **UZUM BANK mobil ilovasi** — Bank-hamkor MBX tizimining mijozga ko'rinadigan vizual qismi bo'lib, iOS va Android operatsion tizimlari uchun mobil ilova shaklida amalga oshirilgan;
- ii. **Veb-interfeys (web-view)** — Bank-hamkor MBX tizimining mijozga ko'rinadigan vizual qismi bo'lib, Operatorning internet tarmog'ida <https://uzumbank.uz/> manzilida joylashtirilgan veb-sayt yoki to'lov veb-sahifasi ko'rinishida amalga oshirilgan;
- iii. **USSD interfeys** — Bank-hamkor MBX tizimining GSM tarmoqlarida USSD (Unstructured Supplementary Service Data) o'zaro aloqa protokoli orqali amalga oshirilgan vizual qismi bo'lib, mijozga qurilma orqali internet tarmog'iga ulanmasdan turib MBX doirasida tegishli operatsiyalarni amalga oshirish uchun tezkor USSD buyruqlarini yuborish imkonini beradi;
- iv. **QR-interfeys** — Bank-hamkor MBX tizimining QR-kod (Quick Response Code) shaklida amalga oshirilgan vizual qismi bo'lib, mijoz qurilmasi kamerasi orqali Bank-hamkor interfeyslariga yoki UZUM NASIYA interfeyslariga tezkor o'tishni ta'minlaydigan ikki o'lchovli shtrix-kodlardan foydalanadi

Bank-hamkor interfeyslaridan foydalanish imkoniyati mijozga faqat mijoz tomonidan Bank-hamkor ning kompleks bank xizmatlari shartnomasi (keyingi o'rinlarda — "KBXSh") aksept qilingan taqdirda taqdim etiladi.

1.1.3. Platforma ishtirokchilari — Operator, Bank-hamkor, MMT-1, MMT2, Savdo hamkori-1, Savdo hamkori-2, mijoz(lar), merchant(lar), Platforma kontragentlari.

- i. **Operator** — "UZUM FINTECH HUB" MChJ — mazkur Shartnoma tomoni bo'lib, O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi, IT-Park rezidenti, UZUM NASIYA Platformasining mutlaq huquq egasi va operatori hisoblanadi hamda mijozlarga UZUM NASIYA Platformasidan foydalanish huquqini taqdim etish orqali tegishli kredit mahsulotlarini olish, shuningdek Platforma doirasida mavjud bo'lgan boshqa xizmatlardan foydalanish imkonini beruvchi xizmatlarni ko'rsatadi.
- ii. **Bank-hamkor** — "UZUM BANK" AJ — O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq bank sifatida faoliyat yuritadi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yil 28 noyabrdagi 88-sonli litsenziyasi asosida), mijozga Bank-hamkor interfeyslari orqali UZUM NASIYA Platformasiga kirish imkoniyatini taqdim etadi, shuningdek mijozga "Bank mikroqarzi" kredit mahsulotini taqdim etadi.
- iii. **MMT-1** — "TEZCOIN" MChJ MMT — O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq mikromoliyaviy tashkilot sifatida faoliyat yuritadi, mikromoliyaviy faoliyatni amalga oshiradi hamda amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa xizmatlarni ko'rsatadi va mijozga Bank-hamkor interfeysi orqali UZUM NASIYA Platformasidan foydalanib "UZUM kartasiga mikroqarz" kredit mahsulotini taqdim etadi.
- iv. **MMT-2** — "SHAFFOF MOLIYA" MChJ MMT — O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq mikromoliyaviy tashkilot sifatida faoliyat yuritadi, mikromoliyaviy faoliyatni amalga oshiradi hamda amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa xizmatlarni ko'rsatadi va mijozga UZUM NASIYA Platformasidan tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali foydalanib "Savdo mikroqarzi" kredit mahsulotini taqdim etadi.
- v. **Savdo hamkori-1** — "ARHAT GRAVURE" MChJ — O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi bo'lib, UZUM NASIYA Platformasidan tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor

interfeysi orqali foydalanib, “**Savdo bo’yicha bo’lib to’lash**” kredit mahsulotini taqdim etish orqali merchantlar tovarlarini mijozlarga sotishni amalga oshiradi.

- vi. **Savdo hamkori-2** — “TECHNO FUTURE TRADE” MChJ — O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi bo‘lib, UZUM NASIYA Platformasidan tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali foydalanib, “**Savdo bo’yicha bo’lib to’lash**” kredit mahsulotini taqdim etish orqali merchantlar tovarlarini mijozlarga sotishni amalga oshiradi.
- vii. **Mijoz** — mazkur Shartnomada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish orqali, Shartnomaning 4-bo‘limida (“Platformaga kirish imkoniyatini taqdim etish va Shartnoma tuzish tartibi”) belgilangan tartibda ushbu Shartnoma shartlariga to‘liq va pisandasiz roziligini (akseptini) bildirgan Prospekt bo‘lib, natijada mazkur Shartnoma tomoni hisoblanadi hamda Platforma tegishli ishtirokchisining kredit mahsulotlaridan foydalanuvchi shaxs hisoblanadi.

Mazkur band maqsadlarida quyidagi atamalar quyida keltirilgan ma’nolarga ega:

- a. **Prospekt (ingliz tilidan — prospect)** — muomala layoqatiga ega bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxs bo‘lib, UZUM NASIYA Platformasiga kirish hamda, shu jumladan, tegishli kredit mahsulotlarini olish imkoniyatiga ega bo‘lish niyatida bo‘lgan shaxs.
- viii. **Merchant** — tovar yetkazib beruvchi — O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxs bo‘lib, Operator bilan tegishli Shartnoma tuzgan va UZUM NASIYA Platformasidan foydalanib o‘z xizmat ko‘rsatish kanallari orqali tovarlarni sotishni amalga oshiradi.
 - a. **Tovar** — merchant tomonidan UZUM NASIYA Platformasidan foydalanib o‘z xizmat ko‘rsatish kanallari orqali realizatsiya qilinadigan iste’mol tovarlari, shuningdek har qanday ishlar va xizmatlar (shu jumladan raqamli xizmatlar).
 - b. **Xizmat ko‘rsatish kanallari** — merchant o‘z tovarlarini realizatsiya qiladigan yoki boshqa faoliyati uchun to‘lovlarni qabul qiladigan savdo yoki servis nuqtalari bo‘lib, ular Onlayn yoki Oflayn bo‘lishi mumkin.
 - c. **Onlayn xizmat ko‘rsatish kanallari** — internet-do‘konlar (shu jumladan ijtimoiy tarmoqlar yoki messengerlar orqali amalga oshiriladigan savdo kanallari), veb-saytlar, mobil ilovalar, elektron savdo platformalari (marketpleyslar) doirasidagi onlayn do‘konlar, masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimlari va/yoki merchantning boshqa maxsus texnik vositalari bo‘lib, ular orqali merchant buyurtmalarni qabul qiladi, o‘z tovarlarini realizatsiya qiladi hamda ular uchun to‘lovlarni masofaviy tarzda qabul qiladi.
 - d. **Oflayn xizmat ko‘rsatish kanallari** — merchantning jismoniy savdo nuqtalari (do‘konlar), operatsion ofislari, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish terminallari bo‘lib, ular orqali merchant mijoz/Prospekt bilan bevosita jismoniy o‘zaro aloqa orqali o‘z tovarlarini realizatsiya qiladi yoki boshqa faoliyati uchun to‘lovlarni qabul qiladi.
- ix. **Platforma kontragentlari** — tegishli faoliyatni amalga oshirish uchun barcha zarur va/yoki qo‘llaniladigan litsenziyalar va/yoki ruxsatnomalarga ega bo‘lgan, shuningdek Operator yoki Platformaning boshqa ishtirokchilari bilan shartnomaviy munosabatlarga ega bo‘lgan tashkilotlar va/yoki yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar bo‘lib, ular UZUM NASIYA Platformasi doirasida o‘zaro bog‘liq xizmatlar majmuasini to‘g‘ri, to‘liq va samarali ko‘rsatishni ta‘minlash maqsadida Platformaning tegishli ishtirokchilari bilan tashkiliy-huquqiy, axborot-texnik va/yoki boshqa turdagi o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi, shuningdek UZUM NASIYA Platformasining to‘g‘ri, to‘liq va samarali ishlashini ta‘minlash uchun boshqa zarur yuridik va amaliy harakatlarni amalga oshiradi, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda):

- a. **O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki**, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining **Banklararo universal netting axborot tizimi** (keyingi o‘rinlarda — “BUNAT”) va boshqa shunga o‘xshash hisob-kitob tizimlari, protsessing va/yoki kliring tashkilotlari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi huzuridagi “Yangi texnologiyalar” ilmiy-axborot markazining fiskal ma‘lumotlar operatori (keyingi o‘rinlarda — “FMO”/“IAMs”), O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi **Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi** (keyingi o‘rinlarda — “RHM”) yoki O‘zbekiston Respublikasida raqamli hukumat dasturlarini amalga oshirish uchun vakolatli boshqa organ, shuningdek boshqa vazirliklar, idoralar, agentliklar, davlat tashkilotlari va/yoki O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlat organlari;
 - b. **“O‘zbekiston Pochtasi” aksiyadorlik jamiyati** (keyingi o‘rinlarda — “Uzpochta”);
 - c. Kredit byurolari;
 - d. Banklar, mikromoliyaviy tashkilotlar va boshqa kredit tashkilotlari hamda sug‘urta tashkilotlari (Platforma ishtirokchilari hisoblanmaydigan);
 - e. To‘lov tizimlari operatorlari, to‘lov tashkilotlari, to‘lov agentlari va subagentlari;
 - f. Mijozlarni masofaviy raqamli identifikatsiya qilishni amalga oshiruvchi va/yoki kompaniyalar hamda tashkilotlar (merchantlar) to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni turli ochiq manbalardan yig‘ish va konsolidatsiya qilishni amalga oshiruvchi tashkilotlar;
 - g. Mobil (uyali) aloqa operatorlari;
 - h. UZUM NASIYA Platformasi doirasida tegishli ishtirokchilar bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar.
- 1.2. **Abonent raqami** — mijozga mobil aloqa operatori tomonidan ajratilgan telefon raqami bo‘lib, u UZUM NASIYA Platformasining shaxsiy kabinetiga yoki Bank-hamkor MBX tizimiga tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali birlashtirilgan.
- 1.3. **Autentifikatsiya** — mijozning haqiqiylikini tekshirish tartibi bo‘lib, mijoz tomonidan kiritilgan va/yoki yuborilgan raqamlar va/yoki belgilar kombinatsiyasini UZUM NASIYA Platformasi tomonidan mijozning abonent raqamiga yuborilgan OTP bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi.
- 1.4. **Autentifikatsiya ma‘lumotlari** — mijozning shaxsini aniqlash uchun mo‘ljallangan noyob shaxsiy identifikatsiya ma‘lumotlari (login, parol, PIN-kod, grafik parol, biometrik ma‘lumotlar va boshqalar) bo‘lib, ular tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali shaxsiy kabinetga kirish uchun foydalaniladi hamda ro‘yxatdan o‘tish jarayonida mijoz/Prospekt tomonidan belgilanadi.
- 1.5. **Bank-hamkor mukofoti** — mijozdan Bank-hamkor tariflariga muvofiq (<https://uzumbank.uz/ru/tariffs> manzilida joylashtirilgan) UZUM kartasiga mikroqarz summasini o‘tkazish uchun undiriladigan to‘lov bo‘lib, uning miqdori Bank-hamkor ning tegishli interfeysida va tariflarida ko‘rsatiladi.
- Bank-hamkor mukofotining miqdori Bank-hamkorning tegishli interfeysida hamda tariflarida belgilanadi.
- 1.6. **Operator mukofoti** — mijozdan ushbu mijozga UZUM NASIYA Platformasidan foydalanish huquqini taqdim etish, shu jumladan tegishli kredit mahsulotlarini olish imkoniyatini yaratish, shuningdek Platforma xizmatlarini ko‘rsatish uchun undiriladigan to‘lov.
- Operator mukofotining miqdori** tegishli kredit mahsuloti doirasida kredit shartnomasi/OSSh rasmiylashtirilayotganda UZUM NASIYA interfeysida va/yoki Bank-hamkor interfeysida aks ettiriladi.
- 1.7. **MBXT (Masofaviy bank xizmatlari tizimi)** — Bank-hamkorning tizimi bo‘lib, u axborot-texnik, tashkiliy-huquqiy va/yoki boshqa vositalar hamda/yoki yuridik ahamiyatga ega harakatlar va xizmatlar majmuasidan iborat bo‘lib, mazkur KBXKSh doirasida mijoz tomonidan telekommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda Bank-hamkor

interfeysi orqali masofaviy tarzda yuboriladigan elektron farmoyishlar asosida taqdim etiladi va mijoz tomonidan, shu jumladan, tegishli kredit mahsulotlarini olish uchun foydalaniladi.

- 1.8. KBXKSh — mijoz va Bank-hamkor o'rtasida tuziladigan kompleks bank xizmatlari shartnomasi bo'lib, mijoz tomonidan Bank-hamkorning ofertasini, jismoniy shaxslarga kompleks bank xizmatlari ko'rsatish qoidalarini hamda Bank-hamkor tariflarini (<https://uzumbank.uz/> manzilida va/yoki Bank-hamkorning tegishli interfeysida joylashtirilgan) aksept qilish yo'li bilan tuziladi.
- 1.9. **Identifikatsiya** — mijoz/Prospektni raqamli identifikatsiya qilish va mijoz/Prospektning KYC jarayonlari bo'yicha chora-tadbirlar majmui bo'lib, ya'ni qo'llaniladigan qonunchilik va/yoki Qoidalar talablariga muvofiq mijoz shaxsini tekshirish va tasdiqlash jarayoni hisoblanadi hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda, shu jumladan MYID tizimi va/yoki boshqa shunga o'xshash masofaviy/raqamli identifikatsiya tizimlari orqali, jumladan biometrik identifikatsiyani amalga oshirish orqali bajariladi.

Identifikatsiya tegishli Platforma ishtirokchisi va/yoki tegishli Platforma kontragenti tomonidan tegishli shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur Shartnomaning ushbu bandi maqsadlarida quyidagi atamalar quyida keltirilgan ma'nolarga ega:

- 1.9.1. **Biometrik identifikatsiya** — ma'lum bir shaxs bilan bog'liq biometrik identifikatorlarni aniqlash va ajratib olish maqsadida biometrik ro'yxatga olish ma'lumotlari bazasida qidiruvni amalga oshirish jarayoni.
- 1.9.2. **KYC (ingliz tilidan “know your client” — “mijozni bilish”)** — xizmat ko'rsatish boshlanishidan oldin Operator, Bank-hamkor yoki Platformaning boshqa ishtirokchisi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirish niyatida bo'lgan Prospektning shaxsini identifikatsiya qilish va verifikatsiya qilish bo'yicha majburiy yuridik tartib bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:
 - i. **Identifikatsiya va verifikatsiya** — mijoz/Prospektni masofaviy raqamli identifikatsiya qilish (shaxsini tasdiqlash) jarayoni bo'lib, mijoz/Prospektning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini uning shaxsiga mosligini tekshirish (solishtirish), shu jumladan MYID tizimi yoki boshqa shunga o'xshash masofaviy/raqamli identifikatsiya tizimi orqali biometrik identifikatsiyadan o'tish, shuningdek taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiylikini tekshirishni o'z ichiga oladi;
 - ii. **Mijozning abonent raqamini verifikatsiya qilish** — ro'yxatdan o'tish jarayonida mijoz tomonidan shaxsiy kabinetga birlashtiriladigan abonent raqamining aynan ushbu mijozga tegishligini uning JShShIRi orqali tekshirish bo'lib, mijozning JShShIRini ushbu abonent raqamiga bog'langan JShShIR bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi (agar/va qachon bunday funksional UZUM NASIYA Platformasi doirasida joriy etilsa).
 - iii. **Xavfni baholash** — Qoidalar talablaridan kelib chiqib mijozning xavf darajasini aniqlash hamda tranzaksiyalarni doimiy monitoring qilish;
 - iv. **Ma'lumotlarni yangilash (aktualizatsiya)** — Qoidalarga muvofiq mijoz to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish.
- 1.9.3. **Qoidalar** –
 - i. Tijorat banklari, mikromoliyaviy tashkilotlar va to'lov tashkilotlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining boshqa tegishli qonunchiligi, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan tegishli xalqaro shartnomalar, jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishga qarshi kurashish bilan bog'liq;
 - ii. Mijozlarni raqamli identifikatsiya qilish tartibi to'g'risidagi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021 yil 30 sentyabrda 3322-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan);

- iii. Kredit va to'lov tashkilotlari hamda to'lov tizimlari operatorlari tomonidan jismoniy shaxslarga masofaviy moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash, shuningdek firibgarlik (frod) holatlarining oldini olish bo'yicha minimal talablar to'g'risidagi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2026 yil 21 yanvarda 3759-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan);
 - iv. mijozlarni raqamli/masofaviy identifikatsiya qilishni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchiligi.
- 1.9.4. **Pre-KYC** — Prospektni masofaviy raqamli identifikatsiya qilish jarayoni bo'lib, Operator tomonidan UZUM NASIYA Platformasining MYID tizimi yoki boshqa shunga o'xshash masofaviy/raqamli identifikatsiya tizimi bilan o'zaro hamkorligi orqali, biometrik identifikatsiya asosida, mazkur Shartnoma aksepti bosqichida amalga oshiriladi.
- 1.9.5. **Qayta KYC** — mijozni masofaviy raqamli identifikatsiya qilish jarayoni bo'lib, Operator tomonidan UZUM NASIYA Platformasining MYID tizimi yoki boshqa shunga o'xshash masofaviy/raqamli identifikatsiya tizimi bilan o'zaro hamkorligi orqali, biometrik identifikatsiya asosida, tegishli kredit mahsuloti ma'qullangandan so'ng, biroq kredit shartnomasi tuzilishidan oldin amalga oshiriladi.
- 1.9.6. **MYID tizimi** — telekommunikatsiya vositalari, raqamli va axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minot hamda uskunalar majmuasidan iborat bo'lib, "MYID" mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi va jismoniy shaxslarni biometrik parametrlar (yuz geometriyasi) asosida identifikatsiya qilish hamda autentifikatsiya qilish imkonini beradi, ularga bank yoki boshqa xizmatlardan foydalanish uchun onlayn rejimda ruxsat etilgan kirishni taqdim etadi.
- Mazkur ilova axborot tizimi hisoblanadi, uning egasi "Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator — UZINFOCOM" MChJ bo'lib, u frontal kameraga ega bo'lgan hamda Android va iOS operatsion tizimlari asosida ishlovchi va internet tarmog'iga ulangan mobil qurilmalar (smartfon, planshet yoki boshqa qurilmalar) uchun mo'ljallangan.
- 1.10. **Kafolatlar va bayonotlar** — mazkur Shartnomaning 9-bo'limida ("Mijozning kafolatlari va bayonotlari") ko'rsatilgan mijozning kafolatlari va bayonotlari, shuningdek mazkur Shartnomaning tegishli bo'limlari va llovalarida nazarda tutilgan boshqa barcha kafolatlar va bayonotlar, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda).
- 1.11. **Qarzdorlik** — mijozning tegishli Platforma ishtirokchisi oldidagi pul majburiyati bo'lib, kredit mahsulotini olish bilan bog'liq (asosiy qarz summasi, hisoblangan foizlar (agar qo'llanilsa) va/yoki boshqa kompensatsiyalar/to'lovlar/jarimalar (agar qo'llanilsa)ni o'z ichiga oladi).
- 1.11.1. **Joriy qarzdorlik** — mijozning tegishli Platforma ishtirokchisi oldidagi pul majburiyati bo'lib, uning to'lov muddati kredit shartnomasi/OSSh va Maxsus shartlar asosida shakllantirilgan to'lov jadvaliga muvofiq yetib kelgan holat.
- 1.11.2. **Muddati o'tgan qarzdorlik** — kredit shartnomasi/OSSh va tegishli Maxsus shartlarda nazarda tutilgan to'lov jadvaliga muvofiq pul majburiyatlari (asosiy qarz summasi, hisoblangan foizlar (agar qo'llanilsa) va/yoki boshqa kompensatsiyalar/to'lovlar/jarimalar (agar qo'llanilsa)) bo'yicha belgilangan muddatda qoplanmagan mijozning tegishli Platforma ishtirokchisi oldidagi qarzdorligi.
- 1.12. **Kredit mahsuloti** — mikroqarz, moliyaviy/tovar iste'mol krediti, kredit kartalari, overdraft/kredit liniyasi, maqsadli va/yoki maqsadsiz kreditlar, lizing mahsulotlari, shuningdek turli xil bo'lib to'lash mahsulotlari bo'lib, ular mijozga UZUM NASIYA Platformasi doirasida tegishli kredit shartnomasi yoki KBXSH asosida UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali taqdim etiladi.
- 1.13. **Kredit shartnomasi** — tegishli kredit mahsulotini taqdim etish bo'yicha Maxsus shartlarda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladigan individual shartnoma bo'lib, tegishli Platforma ishtirokchisi va mijoz o'rtasida UZUM NASIYA Platformasi doirasida tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali rasmiylashtiriladi.

Quyida tegishli kredit mahsulotlarini taqdim etish asos bo'ladigan kredit mahsulotlari va kredit shartnomalari/KBXSH turlarining ta'riflari keltirilgan:

i. **Bank mikroqarzi** — mijoz tomonidan Bank-hamkor ka tegishli Bank-hamkor interfeysi orqali elektron farmoyish shaklida yuborilgan ariza asosida, Bank-hamkor tomonidan mijozga tegishli kredit shartnomasi va unga doir Maxsus shartlarda nazarda tutilgan shartlar asosida taqdim etiladigan foizli onlayn mikroqarz bo'lib, u mijozning farmoyishiga ko'ra UZUM NASIYA Platformasi va/yoki Bank-hamkor MBX tizimidan foydalangan holda mijozning UZUM kartasiga o'tkaziladi.

a. **Bank mikroqarzi bo'yicha kredit shartnomasi** — mijoz va Bank-hamkor o'rtasida Maxsus shartlarda belgilangan shartlar asosida, ushbu shartnomani tuzish bo'yicha ofertani Bank-hamkor interfeysi orqali aksept qilish yo'li bilan tuziladigan onlayn mikroqarz olishga doir shartnoma.

ii. **UZUM kartasiga mikroqarz** — foizsiz onlayn mikroqarz bo'lib, bo'lib to'lash shaklida taqdim etiladi va mijozga MMT-1 tomonidan, mijozning tegishli Bank-hamkor interfeysi orqali elektron farmoyish shaklida yuborilgan arizasi asosida, tegishli kredit shartnomasi hamda unga doir Maxsus shartlarda nazarda tutilgan shartlar asosida taqdim etiladi.

UZUM kartasiga mikroqarz bo'yicha asosiy qarz summasi UZUM kartasiga o'tkaziladigan mablag'lar summasini, Operator mukofotini hamda Bank-hamkor mukofotini o'z ichiga oladi va mijozga uning farmoyishiga ko'ra, UZUM NASIYA Platformasi va/yoki Bank-hamkor MBX tizimidan foydalangan holda, quyidagi hisobvaraqlarga pul mablag'larini o'tkazish orqali taqdim etiladi:

- 1) UZUM kartasi hisobi;
- 2) Operatorning hisobvarag'i — Operator mukofotini to'lash uchun;

Mijoz tasdiqlaydi va rozilik bildiradiki, mikroqarz summasi Bank-hamkor tomonidan UZUM kartasiga o'tkazilganda, Bank-hamkor mukofoti undiriladi va u mikroqarz summasi hisobidan UZUM kartasidan avtomatik ravishda yechib olinadi.

a. **UZUM kartasiga mikroqarz bo'yicha kredit shartnomasi** — mijoz va MMT-1 o'rtasida Maxsus shartlarda belgilangan shartlar asosida, ushbu shartnomani tuzish bo'yicha ofertani Bank-hamkor interfeysi orqali aksept qilish yo'li bilan tuziladigan onlayn mikroqarz olishga doir shartnoma.

iii. **Savdo mikroqarzi** — foizsiz onlayn mikroqarz bo'lib, bo'lib to'lash shaklida taqdim etiladi va mijozga MMT-2 tomonidan merchantning xizmat ko'rsatish kanallarida tovarlar uchun to'lovni amalga oshirish maqsadida, mijoz tomonidan tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali elektron farmoyish shaklida yuborilgan ariza asosida, tegishli kredit shartnomasi hamda unga doir Maxsus shartlarda nazarda tutilgan shartlar asosida taqdim etiladi.

Savdo mikroqarz bo'yicha asosiy qarz summasi Operator mukofoti hamda tovar qiymatini o'z ichiga oladi va mijozga uning farmoyishiga ko'ra, UZUM NASIYA Platformasidan foydalangan holda, quyidagi hisobvaraqlarga pul mablag'larini o'tkazish orqali taqdim etiladi:

- 1) Operatorning hisobvarag'i — Operator mukofotini to'lash uchun;
- 2) merchantning hisobvarag'i — tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali merchantning xizmat ko'rsatish kanallarida xarid qilinayotgan tovarlar uchun to'lovni amalga oshirish uchun.

Tovar qiymati summasi shuningdek Operator hisobvarag'iga o'tkazilishi mumkin, keyinchalik ushbu summa Operator tomonidan merchant hisobvarag'iga tovarlar uchun to'lov sifatida o'tkazilishi uchun, agar/va qachon bunday funksional UZUM NASIYA Platformasi doirasida joriy etilsa.

a. **Savdo mikroqarz bo'yicha kredit shartnomasi** — mijoz va MMT-2 o'rtasida merchantning tegishli xizmat ko'rsatish kanallarida tovarlarni sotib olish maqsadida, Maxsus shartlarda belgilangan shartlar asosida, ushbu shartnomani tuzish bo'yicha ofertani tegishli UZUM NASIYA

interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali aksept qilish yo'li bilan tuziladigan onlayn mikroqarz olishga doir shartnoma.

- iv. **Savdo bo'yicha bo'lib to'lash** — tegishli merchantdan tovarlarni sotib olib, ushbu tovarlarni keyinchalik tegishli Savdo hamkori tomonidan mijozga bo'lib to'lash shartlari asosida sotishni nazarda tutuvchi kredit mahsuloti bo'lib, UZUM NASIYA Platformasi funksionalidan foydalangan holda amalga oshiriladi.
- Merchantdan tovarni sotib olish va uni keyinchalik mijozga sotish mijoz tomonidan tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali elektron farmoyish shaklida yuborilgan ariza asosida, tegishli Savdo hamkori nomiga, hamda tegishli sotuvchi va mijoz o'rtasida OSSh va unga doir Maxsus shartlarni aksept qilish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.
- Savdo bo'yicha bo'lib to'lash summasi tovar qiymatini, shuningdek savdo ustamasini o'z ichiga oladi.
- a. **OSSh** — tovarlarni bo'lib to'lash shartlari asosida oldi-sotdi shartnomasi bo'lib, mijoz va tegishli Savdo hamkori o'rtasida tuziladi hamda ushbu shartnomani tuzish bo'yicha ofertani UZUM NASIYA interfeysi orqali aksept qilish yo'li bilan rasmiylashtiriladi, mijozga "Savdo bo'yicha bo'lib to'lash" kredit mahsulotini taqdim etish maqsadida".
- b. **Savdo ustamasi** — tegishli Savdo hamkorining qo'shimcha daromadi bo'lib, tovar qiymatiga kiritiladi va "Savdo bo'yicha bo'lib to'lash" kredit mahsuloti orqali tovarni realizatsiya qilishda bo'lib to'lash shartlarida to'lov imkoniyatini ta'minlagani uchun undiriladi.
- v. UZUM NASIYA Platformasi doirasida joriy etilishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday kredit mahsulotlari.

Mazkur band maqsadlarida quyidagi atamalar quyida keltirilgan ma'nolarga ega:

- 1.13.1. **To'lov jadvali** — mijoz tomonidan aksept qilingan Maxsus shartlar hamda kredit shartnomasi yoki OSSh asosida shakllantirilgan to'lov jadvali bo'lib, u tegishli kredit shartnomasi/OSSh tuzilgandan so'ng mijozning tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysidagi shaxsiy kabinetida mavjud bo'ladi.
- 1.13.2. **Ariza** — mijozning elektron arizasi bo'lib, u kredit arizasi yoki tegishli OSSh tuzish uchun ariza shaklida bo'lishi mumkin va tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali, mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida, skoring natijalariga ko'ra hisoblangan limit doirasida, tegishli kredit mahsulotining aniq summasini olish uchun taqdim etiladi.
- 1.13.3. **Karta** — bank to'lov kartasi (shu jumladan milliy to'lov tizimlari — HUMO, UZCARD, shuningdek xalqaro to'lov tizimlari — Visa, Mastercard va boshqalar) bo'lib, u jismoniy yoki virtual shaklda bo'lishi mumkin hamda UZUM NASIYA Platformasi funksionali tomonidan qo'llab-quvvatlanadi yoki funksional jihatdan o'xshash boshqa to'lov vositasi hisoblanadi, bunday karta egasiga bank yoki boshqa kredit tashkiloti bilan mijoz o'rtasidagi tegishli shartnoma doirasida ruxsat etilgan bank va boshqa to'lov operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi hamda tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysidagi mijozning shaxsiy kabinetiga birlashtirilgan.
- 1.13.4. **UZUM kartasi** — virtual karta bo'lib, Bank-hamkor tomonidan chiqariladigan maxsus bank to'lov kartasi, UZUM ekotizimining mahsuloti hisoblanadi va KBXSh asosida mijoz nomiga rasmiylashtiriladi.

UZUM kartasi mijozga Bank-hamkor tomonidan virtual vosita shaklida chiqariladi va u bank to'lov kartasi rekvizitlariga teng bo'lgan rekvizitlar majmuasidan iborat bo'lib, tegishli to'lov turini qo'llab-quvvatlaydigan internet resurslarda to'lovlarni amalga oshirish uchun yetarli hisoblanadi hamda faqat internet tarmog'ida yoki Bank-hamkorning MBX tizimi doirasidagi boshqa vositalar orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan, shu jumladan UZUM kartasiga mikroqarz olish imkoniyatini ta'minlaydi.

1.13.5. **Farmoyish** — mijoz tomonidan tegishli Platforma ishtirokchisi nomiga tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali tasdiqlash oynasida harakatni tasdiqlash va/yoki tasdiqlovchi kod (texnik imkoniyat mavjud bo'lsa) yordamida yaratilgan va yuborilgan elektron farmoyish (elektron hujjat).

Farmoyish UZUM NASIYA Platformasida mavjud funksional doirasida amalga oshiriladigan tegishli operatsiyalarni bajarish uchun asos hisoblanadi va quyidagilarga yo'naltirilgan (shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda):

- i. Mazkur Shartnomani aksept qilish;
- ii. Identifikatsiya va skoring jarayonlaridan ketma-ket o'tish jarayonini boshlash;
- iii. Tegishli kredit mahsulotiga ariza taqdim etish;
- iv. Tegishli Platforma ishtirokchisi bilan kredit shartnomasini tuzish (aksept qilish);
- v. Merchantlar tomonidan o'z xizmat ko'rsatish kanallari orqali realizatsiya qilinadigan tovarlarni xarid qilish uchun tegishli Platforma ishtirokchisi bilan OSSHni tuzish (aksept qilish);
- vi. Tegishli kredit mahsuloti summasini Platformaning tegishli ishtirokchilari hisobvaraqlariga o'tkazish;
- vii. Mijozda joriy qarzdorlik yuzaga kelganda, rekurrent to'lovlar doirasida UZUM kartasidan yoki mijozning shaxsiy kabinetiga biriktirilgan boshqa kartalardan pul mablag'larini nizosiz (akseptsiz) avtomatik yechib olish;
- viii. Mijozda muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelganda, mijozning barcha hisobvaraqlari (kartalari)dan pul mablag'larini nizosiz (akseptsiz) avtomatik yechib olish;
- ix. Qaytarish operatsiyalarini amalga oshirish;
- x. UZUM NASIYA Platformasi doirasida amalga oshirilgan yoki amalga oshirilishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday operatsiyalarni bajarish.

1.13.6. **Tasdiqlash oynasi** — UZUM NASIYA mobil ilovasi yoki UZUM BANK mobil ilovasida amalga oshirilgan vizual oyna bo'lib, mijoz/Prospekt tomonidan mazkur Shartnomaning barcha muhim shartlariga, tegishli kredit shartnomasi/OSSh va Maxsus shartlarga roziligini tasdiqlash, shuningdek UZUM NASIYA Platformasi yoki Bank-hamkor MBX tizimi doirasida tegishli operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida tegishli farmoyishlarni tasdiqlash uchun mo'ljallangan.

Tasdiqlash oynasining funksionali mijoz/Prospektga tegishli UZUM NASIYA yoki UZUM BANK mobil ilovasi interfeysida tugmani bosish, havola orqali o'tish yoki belgi ("check box") qo'yish orqali ma'lum harakatni amalga oshirish (tasdiqlash, rozilik bildirish, aksept qilish) yoki uni amalga oshirishdan voz kechish (rad etish, bekor qilish, rozilik bermaslik) imkoniyatini beradi.

Tasdiqlash oynasidan foydalangan holda mijoz/Prospekt tomonidan amalga oshirilgan barcha harakatlar e'tiroz bildirilishi mumkin emas deb hisoblanadi, mijoz/Prospekt tomonidan shaxsan amalga oshirilgan deb tan olinadi hamda amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq o'z qo'li bilan qo'yilgan imzo bilan teng yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradi.

1.13.7. **Maxsus shartlar** — tegishli kredit mahsulotini taqdim etishning individual shartlari bo'lib, tegishli kredit shartnomasi/OSShning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.14. **Operatsiya** — mijozning farmoyishi asosida amalga oshiriladigan tegishli Platforma ishtirokchilarining harakatlari majmui bo'lib, u mijozga tegishli kredit mahsulotini taqdim etish va/yoki unga xizmat ko'rsatishni ta'minlashga, shuningdek UZUM NASIYA Platformasi doirasida tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali amalga oshiriladigan boshqa operatsiyalarni bajarishga qaratilgan.

1.14.1. **Qaytarish operatsiyasi** — tegishli Platforma ishtirokchilarining harakatlari majmui bo'lib, mijoz tomonidan kredit mahsulotlari "Savdo mikroqarzi" yoki "Savdo bo'yicha bo'lib to'lash" doirasida xarid qilingan tovarlar uchun to'langan pul mablag'lari summasini yoki uning bir qismini, tovar mijoz tomonidan

qaytarilganda (bekor qilinganda) yoki mazkur Shartnomaning tegishli bo'limlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha qaytarishga qaratilgan.

Platforma Ishtirokchilari o'rtasida Qaytarish Operatsiyasini amalga oshirish tartibi Savdo Mikroqarzi bo'yicha Kredit Shartnomasi yoki OSShda belgilangan

- 1.15. **OTP (ingliz tilidan “one-time password”)** — faqat bitta autentifikatsiya seansi uchun amal qiladigan parol bo'lib, u mijozni autentifikatsiya qilish uchun UZUM NASIYA Platformasi tomonidan mijozning abonent raqamiga yuboriladi. OTP amal qilish muddati ma'lum vaqt oralig'i bilan cheklangan bo'lishi mumkin.
- 1.16. **Mijozning shaxsiy ma'lumotlari** — mijozning shaxsiy ma'lumotlari bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: mijozning familiyasi, ismi va otasining ismi (agar qonunchilikdan yoki milliy urf-odatlardan boshqacha kelib chiqmasa), fuqaroligi, tug'ilgan sanasi, mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjat rekvizitlari, yashash (ro'yxatdan o'tgan) manzili yoki vaqtincha yashash manzili, mobil aloqa operatori tomonidan mijozga ajratilgan abonent raqami, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (keyingi o'rinlarda — “JShShIR”), mijozning kredit tarixi, mijozning bank siri, shuningdek mijozning shaxsini to'g'ridan-to'g'ri va/yoki bilvosita aniqlash (identifikatsiya qilish) imkonini beruvchi boshqa har qanday ma'lumotlar.
 - 1.16.1. **Bank siri** — O'zbekiston Respublikasining “Bank siri to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq bank siri hisoblanadigan mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlar”
 - 1.16.2. **Kredit tarixi** — mijozga tegishli bo'lgan, u tomonidan tuzilgan kredit bitimlari holati, berilgan ta'minot (garov, kafolat, kafillik, kreditni qaytarmaslik xavfini sug'urtalash va boshqa ta'minot turlari) bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi, shuningdek mijozning kreditga layoqatliligi, moliyaviy holati, to'lovga qobiliyati, to'lov intizomi va boshqa xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi boshqa ma'lumotlar bo'lib, ular tegishli kredit byurolaridan olinadi yoki ularga taqdim etiladi yoxud Platformaning boshqa tegishli kontragentlaridan olinadi.
 - 1.16.3. **Kredit byurosi** — “Kredit byurosi «Kredit-axborot tahlil markazi»” MChJ va/yoki “Kredit byurosi «Kredit-axborot xizmatlari CRIF»” MChJ bo'lib, ular bilan Operator va/yoki tegishli Platforma ishtirokchisi o'rtasida kredit axboroti almashinuvi bo'yicha tegishli shartnomalar tuzilgan bo'lishi mumkin.
- 1.17. **Shaxsiy kabinet** — UZUM NASIYA Platformasi yoki Bank-hamkorning MBX tizimi doirasida yaratiladigan va/yoki unga kirish mijozga taqdim etiladigan hisob yozuvi bo'lib, u orqali mijoz tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi yordamida UZUM NASIYA Platformasi yoki Bank-hamkor MBX tizimi doirasida mavjud operatsiyalarni amalga oshirish uchun farmoyishlar berishi mumkin.
- 1.18. **Ro'yxatdan o'tish** — mazkur Shartnomaning 4-bo'limida (“Platformaga kirish imkoniyatini taqdim etish va Shartnoma tuzish tartibi”) bayon etilgan UZUM NASIYA Platformasiga kirish imkoniyatini taqdim etish va mazkur Shartnomani tuzish jarayoni.
- 1.19. **Rekurrent to'lov** — tuzilgan kredit shartnomalari yoki OSSh bo'yicha takrorlanuvchi to'lov bo'lib, u mijoz kartasidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi hamda mijozning joriy yoki muddati o'tgan qarzdorligi bo'yicha belgilangan summani yechib olishni nazarda tutadi, bunda mijoz har safar to'lov rekvizitlarini kiritishi va operatsiyani tasdiqlashi talab etilmaydi.
- 1.20. **Operator sayti** — Operatorning internet tarmog'idagi veb-sayti bo'lib, u orqali, shu jumladan, UZUM NASIYA Platformasiga veb-interfeys orqali kirish imkoniyati taqdim etiladi: <https://uzumnasiya.uz/>.
- 1.21. **Skoring** — mijozning to'lovga qobiliyatini dastlabki baholash tizimi bo'lib, Operator tomonidan qo'llaniladi, sonli statistik usullarga asoslanadi hamda ma'lumotlarni, shu jumladan mijozning kredit tarixini qayta ishlash natijalari bo'yicha ball berish orqali amalga oshiriladi, ushbu ballar asosida Operator mijozga limit taqdim etish to'g'risida qaror qabul qiladi, tegishli Platforma ishtirokchisi esa mijozga tegishli kredit mahsulotini berishni ma'qullash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Skoring metodikasi quyidagi omillarga asoslanadi:

- mijozning joriy moliyaviy holatiga kredit yuklamasining mosligi (Qarz yuki koeffitsienti — QYK);

- mijozning kredit tarixi;
- tegishli kredit mahsulotlari doirasidagi majburiyatlarni bajarish uchun kutilayotgan pul tushumlarining taxminiy muddatlari va hajmlari;
- mijozning moliyaviy holati, to'lovga qobiliyati, to'lov intizomi va boshqa xususiyatlari;
- fors-major holatlar va boshqa vaziyatlar ta'sirida tegishli kredit mahsulotlari doirasidagi majburiyatlarni bajara olmaslik xavfi yuzaga kelish ehtimoli.

Bunda to'lovga qobiliyatni baholashning aniq parametrlari va mezonlari hamda skoring metodikasi tegishli Tomonlarning tijorat siri hisoblanadi va maxfiy axborot sifatida qaraladi.

Skoring jarayoni ikki bosqichdan iborat: dastlabki — Pre-skoring va Kreditor skoringi.

Mazkur band maqsadlarida quyidagi atamalar quyida keltirilgan ma'nolarga ega:

1.21.1. **Limit** — Operator mukofotini o'z ichiga olmaydigan, pul ekvivalentida ifodalangan belgilangan limit bo'lib, uning doirasida mijoz tegishli kredit mahsulotini olishi mumkin. Limit miqdori KYC, Pre-skoring yoki Kreditor skoringi jarayonlari natijalariga bog'liq. Limit ikki toifaga bo'linadi — "START" va "MAX":

- i. **"START" limiti** — 5 000 000 (besh million) so'mgacha bo'lgan pul ekvivalentidagi limit bo'lib, boshlang'ich to'lovsiz 3 (uch) oygacha muddatga kredit mahsulotlari uchun taqdim etiladi;
- ii. **"MAX" limiti** — 25 000 000 (yigirma besh million) so'mgacha bo'lgan pul ekvivalentidagi limit bo'lib, boshlang'ich to'lovsiz 6 (olti) oydan boshlab muddatga kredit mahsulotlari uchun taqdim etiladi.

Limit bank hisobvarag'i hisoblanmaydi, faqat mijozni xabardor qilish maqsadida mo'ljallangan bo'lib, mazkur Shartnomada nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno, pul ekvivalentiga konvertatsiya qilinmaydi

1.21.2. **Pre-skoring** — mijozning to'lovga qobiliyatini dastlabki baholash jarayoni bo'lib, Operator tomonidan amalga oshiriladi va ushbu mijozga limit taqdim etish uchun zarur hisoblanadi.

1.21.3. **Kreditor skoringi** — mijozning to'lovga qobiliyatini baholash jarayoni bo'lib, Operator tomonidan tegishli Platforma ishtirokchisining (keyingi o'rinlarda — "Kreditor") so'rovi asosida, mijoz tomonidan tegishli kredit mahsulotiga ariza taqdim etilgandan so'ng, ushbu kredit mahsulotini limit doirasida berishni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilish maqsadida amalga oshiriladi.

1.22. **Individuallashtirish vositalari** — tegishli Platforma ishtirokchilarining logotiplari, tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari), tijorat va firma nomlari, shuningdek boshqa har qanday individuallashtirish vositalari.

1.23. **Tomon/Tomonlar** — mazkur Shartnoma tomoni bo'lgan Operator yoki mijoz bo'lib, keyingi o'rinlarda alohida holda — "Tomon", birgalikda — "Tomonlar" deb yuritiladi.

1.24. **Platforma xizmatlari** — Operator tomonidan mijozga UZUM NASIYA Platformasi doirasida ko'rsatiladigan xizmatlar bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi (lekin ular bilan cheklanmaydi):

1.24.1. Identifikatsiya jarayonlarini ta'minlash bo'yicha xizmatlar;

1.24.2. Skoring jarayonlarini ta'minlash bo'yicha xizmatlar;

1.24.3. Tegishli kredit mahsulotlarini olish imkoniyatini ta'minlash, shuningdek tegishli Platforma ishtirokchisi bilan kredit shartnomalari va/yoki OSShni rasmiylashtirish va tuzish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha xizmatlar;

1.24.4. Rasmiylashtirilgan kredit mahsulotlari bo'yicha qarzdorlikni tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali so'ndirish, boshqarish va/yoki monitoring qilish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha xizmatlar;

1.24.5. Tuzilgan kredit shartnomalari va OSShlarni monitoring qilish hamda “Savdo mikroqarzi” va “Savdo bo'yicha bo'lib to'lash” kredit mahsulotlari doirasida xarid qilingan tovarlar to'g'risida ma'lumot olish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha xizmatlar;

1.24.6. UZUM NASIYA Platformasini boshqarish bilan bog'liq, Platforma funksionali doirasida mavjud bo'lgan boshqa xizmatlar.

1.25. Jarayonlardan muvaffaqiyatli o'tish –

— **KYC uchun** — mazkur Shartnomaning 1.9.2-bandida nazarda tutilgan identifikatsiya va verifikatsiya, mijozning abonent raqamini verifikatsiya qilish hamda riskni baholash jarayonlari Qoidalar talablariga to'liq muvofiq ravishda amalga oshirilganligini anglatadi.

— **Skoring uchun** — mijozga tegishli Limitni berish yoki tegishli Kredit mahsulotini tasdiqlash/berish uchun yetarli miqdorda ball tayinlash .

Shunga muvofiq, yuqorida ko'rsatilgan jarayonlarning “**muvaffaqiyatsiz o'tishi**” mazkur bandning yuqoridagi kichik bandlarida nazarda tutilgan har qanday talab va mezonlarga nomuvofiqlikni anglatadi.

1.26. **Qurilma (mijozniki)** — mijoz tomonidan tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali o'z shaxsiy kabinetiga kirish uchun foydalaniladigan smartfon, planshet, mobil qurilma, shaxsiy kompyuter yoki boshqa ko'chma yoki statsionar elektron qurilma.

1.27. Firibgarlik (frod) va shubhali operatsiyalar –

1.27.1. Platformaning tegishli ishtirokchilarining pul mablag'larini legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarida nazarda tutilgan harakatlar.

1.27.2. **Limitlarni naqdlashtirish**, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda):

- i. Mijozga merchant yoki boshqa shaxs tomonidan va/yoki ular bilan oldindan til biriktirgan holda, UZUM NASIYA Platformasi orqali tegishli kredit mahsuloti yordamida to'langan tovar o'rniga pul mablag'larini berish, va/yoki mijozga kredit mahsuloti bo'yicha nazarda tutilgan summadan arzonroq qiymatdagi tovarni berib, qolgan qismini pul shaklida qaytarish, shuningdek merchant uchun oldindan ma'lum bo'lgan kreditga layoqatsiz yoki to'lovga qobiliyatsiz shaxslarga, yoxud tovar qiymatini to'lash niyati yoki imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxslarga, yoki tovar uchun to'lovni olish va qaytarish muddatlari, miqdorlari va shartlari yuzasidan noto'g'ri tushunchaga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan bunday harakatlarni amalga oshirish.
- ii. **Soxta bitimlarni rasmiylashtirish** — mavjud bo'lmagan tovarlarga buyurtmalar rasmiylashtirilishi va mijoz mablag'lari tegishli shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar amalda bajarilmagan holda merchant hisobvarag'iga o'tkazilishi.
- iii. Kuryerga yoki boshqa shaxsga bo'sh qadoqni topshirish bilan bir vaqtda tovarni bevosita mijozga yetkazish.
- iv. **Merchantning kuryer yoki boshqa shaxs va/yoki mijoz bilan til biriktirishi** natijasida tovarning soxta yetkazib berilishini tashkil etish, bunda mijoz tovarni amalda olmaydi, biroq “tovar qabul qilindi” degan yolg'on tasdiq rasmiylashtiriladi hamda tovarning tasviri yoki videosi yoki boshqa (shu jumladan yozma) tasdiqlar yuboriladi.
- v. **Tegishli kredit shartnomasi/OSShni ishonchsiz (noto'g'ri) ma'lumotlar asosida rasmiylashtirish**, bunday ma'lumotlar mijozdan, merchantdan yoki Platformaning tegishli kontragentlaridan olinishi va ushbu shaxslar o'rtasida oldindan til biriktirilgan bo'lishi natijasida skoring jarayoni buzilgan yoki buzilishi mumkin bo'lgan holatlar.
- vi. **Tegishli kredit shartnomasi/OSShni rasmiylashtirish**, mijoz qurilmasidagi abonent raqami boshqa shaxs mulkiga o'tganligi natijasida, shuningdek mijozning xabarisiz uning qurilmasidan foydalangan holda, shu jumladan mijozning aybi (ehtiyotsizligi) tufayli mazkur qurilmaga ruxsatsiz

kirish natijasida, shuningdek mijozning aybisiz uning qurilmasiga o'rnatilgan zararli ilovalar va dasturlar orqali yoki abonent raqamidan uzoq muddat (3 oydan ortiq) foydalanilmaganligi oqibatida rasmiylashtirilgan holatlar.

- vii. Mijozlarga tovar yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar mijozlar tomonidan imzolanmagan yoki uchinchi shaxslar tomonidan imzolangan bo'lishi, ya'ni mijoz yoki uning vakili hisoblanmaydigan, yoxud vakolatlari amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq tasdiqlanmagan shaxslar tomonidan imzolangan holatlar.
- viii. Mijozlarga tovar yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjatlarda qalbakilashtirish yoki soxtalashtirish alomatlari mavjud bo'lishi.
- ix. Merchant, mijoz yoki uchinchi shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda, tegishli kredit mahsulotlarini olish uchun mo'ljallangan limitlardan noqonuniy foydalanishga qaratilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish, bunday harakatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq firibgarlik (shu jumladan kiberfiribgarlik) sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin bo'lgan holatlar.

1.28. **UZUM ekotizim mahsuloti** — bu UZUM NASIYA Platformasi, Bank-hamkor ning MBXsi va UZUM ekotizim hamkorlarining yagona texnologik konturda ishlovchi o'zaro integratsiyalashgan xizmatlari va yechimlari majmuasi bo'lib, ular yagona "UZUM" savdo belgisi atrofida birlashtirilgan. Bunda har bir tomon boshqa mahsulot funktsionalligini to'ldiradi va natijada ekotizim ishtirokchilari o'rtasidagi jarayonlar hamda servislarning integratsiyasi hisobiga mijoz uchun maksimal qiymat yaratiladi.

1.29. **UZUM ekotizim hamkori** — Operator va/yoki Platformaning boshqa ishtirokchilari bilan affillangan yuridik shaxs bo'lib, UZUM NASIYA Platformasi bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda mijozlar uchun UZUM ekotizim mahsulotlarini yaratadi hamda ularni o'z interfeyslari va/yoki UZUM NASIYA interfeyslari orqali taqdim etadi.

Ekotizim hamkorlariga quyidagilar kiradi:

1.29.1. Platforma ishtirokchilari;

1.29.2. «UZUM MARKET» MChJ XK,

1.29.3. «UZUM AUTO» MChJ,

1.29.4. «UZUM TEZKOR» MChJ XK.

1.29.5. Platforma ishtirokchilari bilan affillangan va tegishli UZUM ekotizim mahsulotlarini amalga oshiruvchi boshqa har qanday shaxslar.

2. TALQIN QILISH

Mazkur Shartnomada, agar kontekstdan boshqacha kelib chiqmasa:

- 2.1. Bosh harf bilan boshlanadigan yoki to'liq bosh harflarda yozilgan barcha so'zlar, so'z birikmalari, iboralar yoki ifodalar (til qoidalariga muvofiq bosh harf qo'llanilishi talab etiladigan holatlar bundan mustasno) va/yoki "(«-»)" bilan ajratilgan birliklar mazkur Shartnomaning 1-bo'limida ("ATAMALAR VA TA'RIFLAR") yoki Shartnomaning boshqa qismlarida va uning ilovalarida berilgan atamalar va ta'riflar ma'nosida qo'llaniladi, agar mazkur Shartnoma kontekstdan boshqacha kelib chiqmasa.
- 2.2. "Yozma" yoki unga o'xshash ifodalarga qilingan har qanday havola, umumqabul qilingan va keng qo'llaniladigan tushunchalar bilan bir qatorda, faksimil uzatish, elektron pochta va boshqa mavjud elektron aloqa vositalarini, shu jumladan elektron hujjat aylanishi tizimlarini ham o'z ichiga oladi, ulardan olingan ma'lumotlarni qabul qiluvchi shaxs qog'oz shaklida chop etishi yoki boshqa mavjud tashuvchilarga ko'chirishi mumkin.
- 2.3. Yagona sondagi so'zlar ko'plik ma'nosini ham, ko'plikdagi so'zlar esa yagona ma'noni ham anglatadi; erkak jinsidagi so'zlar ayol va o'rta jinsdagi so'zlarni ham, va aksincha, o'z ichiga oladi.

- 2.4. “Kun” yoki “kunlar” degan ifodalar, agar mazkur Shartnoma kontekstidan boshqacha kelib chiqmasa, kalendar kunlarni anglatadi.
- 2.5. “O‘zbekiston Respublikasi” yoki “O‘zR”ga bo‘lgan havolalar, kontekstga qarab, tegishli kelishikda qo‘llaniladigan O‘zbekiston Respublikasini anglatadi.
- 2.6. Mazkur hujjat matni ushbu Shartnoma, uning barcha llovalari va unga ilgari kiritilgan yoki kelgusida vaqti-vaqti bilan kiritilishi mumkin bo‘lgan o‘zgartirishlar, tuzatishlar, yangilanishlar va qo‘shimchalar bilan birgalikda talqin qilinadi, ular uning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 2.7. Mazkur Shartnomaning barcha qismlaridagi til har qanday holatda undagi so‘z va iboralarning bevosita (so‘zma-so‘z) ma‘nosidan kelib chiqib talqin qilinadi. Shartnoma shartlarining mazmuni noaniq bo‘lgan taqdirda, u boshqa shartlar hamda Shartnomaning umumiy mazmuni bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.
- 2.8. Mazkur Shartnoma rus va o‘zbek tillarida tuzilgan bo‘lib, uning tegishli til versiyasi UZUM NASIYA interfeysining yoki Bank-hamkor interfeysining tegishli til versiyasida joylashtiriladi. Shartnomaning har bir til versiyasi teng yuridik kuchga ega, biroq versiyalar o‘rtasida tafovut yuzaga kelgan taqdirda, rus tilidagi versiya ustuvor hisoblanadi.
- 2.9. Mazkur Shartnoma matnida bo‘limlar nomlari, so‘zlar, so‘z birikmalari, iboralar yoki boshqa matn qismlarining qalin, kursiv, tagiga chizilgan yoki boshqa usulda ajratilishi faqat qulaylik uchun mo‘ljallangan bo‘lib, mazkur Shartnomani talqin qilishda hisobga olinmaydi, 2.1-bandda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.
- 2.10. Mazkur Shartnoma matnida qulay navigatsiyani ta‘minlash maqsadida bo‘limlar, bandlar, kichik bandlar va ushbu bandlar/kichik bandlar ichidagi paragrafalarga ajratilgan.
- 2.11. Mazkur Shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, Tomonlar uchun ushbu hujjatning avvalgi tahriri va/yoki uni almashtiruvchi hujjatlar, shuningdek mazkur Shartnoma bilan tartibga solingan masalalar bo‘yicha barcha avvalgi muzokaralar va yozishmalar o‘z kuchini yo‘qotadi.

3. SHARTNOMA PREDMETI

- 3.1. Mazkur hujjat O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, muomala layoqatiga ega jismoniy shaxslarga qaratilgan Operatorning UZUM NASIYA Platformasiga qo‘shilish to‘g‘risidagi shartnomani tuzish bo‘yicha ommaviy taklifi (ommaviy oferta) hisoblanadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq tuziladi.
- 3.2. Mazkur Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360-moddasida nazarda tutilgan ma‘nodagi qo‘shilish shartnomasi hisoblanadi.
- 3.3. Mazkur Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354-moddasiga muvofiq aralash shartnoma hisoblanadi va quyidagi turdagi shartnomalar elementlarini o‘z ichiga oladi:
 - 3.3.1. Intellektual mulk obyektidan (dasturiy ta‘minot — tegishli UZUM NASIYA interfeysi) foydalanish huquqini berish to‘g‘risidagi shartnoma — litsenziya shartnomasi;
 - 3.3.2. Xizmatlar ko‘rsatish shartnomasi.
- 3.4. Mazkur Shartnoma 4-bo‘limda (“PLATFORMAGA KIRISHNI TAQDIM ETISH VA SHARTNOMANI TUZISH TARTIBI”) nazarda tutilgan tartibda ushbu ofertaning matni aksept qilingan paytdan boshlab mijoz uchun kuchga kiradi.
- 3.5. Mazkur Shartnomaga muvofiq:
 - 3.5.1. Operator quyidagilarga majbur:
 - i. Mijozga UZUM NASIYA Platformasidan foydalanish huquqini berish orqali tegishli UZUM NASIYA interfeysiga kirishni ta‘minlash, mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida.
 - ii. Mazkur Shartnomada nazarda tutilgan doirada va shartlarda mijozga Platforma xizmatlarini ko‘rsatish.

3.5.2. Mijoz quyidagilarga majbur:

i. Tegishli kredit mahsuloti doirasida olingan mablag'lar hisobidan Operator mukofotini to'lash.

3.6. Tegishli kredit mahsuloti doirasida kredit shartnomasi yoki OSShni tuzish va rasmiylashtirish mazkur Shartnomaning predmeti hisoblanmaydi hamda tegishli kredit shartnomasi/OSSh bilan tartibga solinadi va quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

3.6.1. **“Bank mikroqarzi” kredit mahsuloti bo'yicha** — mijoz va Bank-hamkor o'rtasida Maxsus shartlarda belgilangan shartlar asosida, mijoz tomonidan Bank-hamkorning ushbu shartnomani tuzish bo'yicha ofertasini hamda Maxsus shartlarni tegishli Bank-hamkor interfeysi orqali aksept qilish yo'li bilan Bank mikroqarzi kredit shartnomasi tuziladi.

Mijozga Bank mikroqarzi kredit shartnomasi shartlari bilan tegishli Bank-hamkor interfeysi orqali yoki Bank-hamkorning quyidagi rasmiy saytida tanishish imkoniyati beriladi: <https://uzumbank.uz/>

Bank mikroqarzi kredit shartnomasi mijoz tomonidan KBXSHni aksept qilish, shuningdek mijoz tomonidan Kreditor skoringi va takroriy EKYC jarayonlaridan o'tish sharti bilan tegishli Bank-hamkor interfeysi orqali tuziladi.

Mijoz tomonidan Bank mikroqarzi kredit shartnomasi va unga tegishli Maxsus shartlar Bank-hamkor bilan tuzilgandan (aksept qilingandan) so'ng, ushbu hujjatlar mijozning shaxsiy kabinetida tegishli UZUM NASIYA interfeysi va Bank-hamkor interfeysi orqali mavjud bo'ladi.

3.6.2. **“UZUM kartasiga mikroqarz” kredit mahsuloti bo'yicha** — mijoz va MMT-1 o'rtasida Maxsus shartlarda belgilangan shartlar asosida, mijoz tomonidan MMT-1ning ushbu shartnomani tuzish bo'yicha ofertasini hamda Maxsus shartlarni tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali aksept qilish yo'li bilan UZUM kartasiga mikroqarz kredit shartnomasi tuziladi.

Mijozga UZUM kartasiga mikroqarz kredit shartnomasi shartlari bilan tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali yoxud Operatorning rasmiy saytida quyidagi manzil orqali tanishish imkoniyati beriladi: <https://uzumnasiya.uz/>

UZUM kartasiga mikroqarz kredit shartnomasi mijoz tomonidan KBXSHni aksept qilish, shuningdek mijoz tomonidan Kreditor skoringi va takroriy EKYC jarayonlaridan o'tish sharti bilan tegishli Bank-hamkor interfeysi orqali tuziladi.

Mijoz tomonidan UZUM kartasiga mikroqarz kredit shartnomasi va unga tegishli Maxsus shartlar MMT-1 bilan tuzilgandan (aksept qilingandan) so'ng, ushbu hujjatlar mijozning shaxsiy kabinetida tegishli UZUM NASIYA interfeysi va Bank-hamkor interfeysi orqali mavjud bo'ladi.

3.6.3. **“Savdo mikroqarzi” kredit mahsuloti bo'yicha** — mijoz va MMT-2 o'rtasida Maxsus shartlarda belgilangan shartlar asosida, mijoz tomonidan MMT-2ning ushbu shartnomani tuzish bo'yicha ofertasini hamda Maxsus shartlarni tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki tegishli Bank-hamkor interfeysi orqali aksept qilish yo'li bilan Savdo mikroqarzi kredit shartnomasi tuziladi.

Mijozga Savdo mikroqarzi kredit shartnomasi shartlari bilan tegishli UZUM NASIYA interfeysi orqali yoki Operatorning rasmiy saytida quyidagi manzil orqali tanishish imkoniyati beriladi: <https://uzumnasiya.uz/>

Savdo mikroqarzi kredit shartnomasi faqatgina Merchantning xizmat ko'rsatish kanallarida tovarlar uchun to'lovni amalga oshirish maqsadida, mijoz tomonidan Kreditor skoringidan muvaffaqiyatli o'tilgan taqdirda tuziladi.

Mijoz tomonidan Savdo mikroqarzi kredit shartnomasi va unga tegishli Maxsus shartlar MMT-2 bilan tuzilgandan (aksept qilingandan) so'ng, ushbu hujjatlar mijozning shaxsiy kabinetida tegishli UZUM NASIYA interfeysi va Bank-hamkor interfeysi orqali mavjud bo'ladi.

3.6.4. **Savdo bo'yicha bo'lib to'lash” kredit mahsuloti bo'yicha** — mijoz va tegishli Savdo hamkori o'rtasida Maxsus shartlarda belgilangan shartlar asosida, mijoz tomonidan tegishli Savdo hamkorining

OSSh ofertasini hamda Maxsus shartlarni tegishli UZUM NASIYA interfeysi orqali aksept qilish yo'li bilan OSSh tuziladi.

Mijozga OSSh shartlari bilan tegishli UZUM NASIYA interfeysi orqali yoki Operatorning rasmiy saytida quyidagi manzil orqali tanishish imkoniyati beriladi: <https://uzumnasiya.uz/>

Savdo bo'yicha bo'lib to'lash doirasidagi OSSh faqatgina Merchantning xizmat ko'rsatish kanallarida tovarlar uchun to'lovni amalga oshirish maqsadida, mijoz tomonidan Kreditor skoringidan muvaffaqiyatli o'tilgan taqdirda tuziladi.

Mijoz tomonidan OSSh va unga tegishli Maxsus shartlar tegishli Savdo hamkori bilan tuzilgandan (aksept qilingandan) so'ng, ushbu hujjatlar mijozning shaxsiy kabinetida tegishli UZUM NASIYA interfeysi va Bank-hamkor interfeysi orqali mavjud bo'ladi.

- 3.6.5. **Boshqa kredit mahsulotlari bo'yicha** — bunday kredit mahsulotlarini taqdim etish tartibi mijoz va tegishli Platforma ishtirokchisi o'rtasida tuziladigan tegishli shartnoma bilan tartibga solinadi.

4. PLATFORMAGA KIRISHNI TAQDIM ETISH VA SHARTNOMANI TUZISH TARTIBI

- 4.1. UZUM NASIYA Platformasiga kirish va tegishli kredit mahsulotlarini olish imkoniyatiga ega bo'lish uchun Prospekt o'z Qurilmasiga UZUM NASIYA mobil ilovasini, Bank mikroqarzi yoki UZUM kartasiga mikroqarz olish uchun esa — UZUM BANK mobil ilovasini yuklab oladi.

“Savdo mikroqarzi” yoki “Savdo bo'yicha bo'lib to'lash” kredit mahsulotlari bo'yicha, UZUM NASIYA mobil ilovasini yuklab olishni istamagan va/yoki bunga imkoniyati bo'lmagan Prospekt UZUM NASIYA Platformasiga quyidagi manzilda joylashgan veb-interfeys orqali kirishi mumkin: <https://uzumnasiya.uz/>

- 4.2. UZUM NASIYA Platformasiga ulanish va undan keyinchalik foydalanish uchun Prospekt tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi ko'rsatmalariga amal qilgan holda:

4.2.1. O'zining shaxsiy ma'lumotlarini, jumladan abonent raqami, tug'ilgan sana, JSHSHIR yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjat rekvizitlari hamda tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysida talab etiladigan boshqa ma'lumotlarni kiritadi;

4.2.2. Abonent raqamiga OTP kelib tushgandan so'ng, Prospekt autentifikatsiyadan o'tadi. Autentifikatsiya ijobiy natija bergan taqdirda, UZUM NASIYA Platformasi mijozning shaxsiy kabinetini ro'yxatdan o'tkazadi;

4.2.3. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng, Prospekt tegishli interfeysga kirish va Platforma bilan ishlash uchun autentifikatsiya ma'lumotlarini belgilaydi.

4.2.4. Autentifikatsiya ma'lumotlari o'rnatilgandan so'ng, Prospekt tegishli interfeysdagi Tasdiqlash oynasida tegishli harakatni amalga oshirish orqali mazkur Shartnomani aksept qiladi. Shu paytdan boshlab Prospekt mijoz maqomini oladi va mazkur Shartnomaning Tomoniga aylanadi.

Tegishli kredit mahsulotlarini olish imkoniyatiga ega bo'lish uchun mijoz avvalo Limit olishi lozim.

- 4.2.5. Tegishli kredit mahsulotlarini olish imkoniyatiga ega bo'lish uchun mijoz avvalo Limit olishi lozim.

i. **“START” Limitini** olish uchun mijoz o'z shaxsiy kabinetini orqali MYID tizimi orqali yoki UZUM NASIYA Platformasi funksionali doirasida nazarda tutilgan boshqa usullar yordamida biometrik identifikatsiyadan o'tish orqali identifikatsiya (Pre-KYC) jarayonidan o'tadi.

ii. **“MAX” Limitini** olish uchun mijoz Pre-KYC jarayonidan o'tgandan so'ng, o'z Kartasini shaxsiy kabinetga karta raqami va amal qilish muddatini kiritish orqali biriktiradi hamda abonent raqamiga yuborilgan OTP orqali autentifikatsiyadan o'tadi.

Mazkur jarayon Operator tomonidan amalga oshiriladigan pre-skoring jarayoni bilan birga olib boriladi, uning natijasida mijozga tegishli Limit taqdim etiladi.

Mijoz Pre-KYC va pre-skoring jarayonlaridan o'tgandan so'ng, Operator mijozga elektron xabar yuboradi, unda pre-skoring jarayonlarining muvaffaqiyatli yakunlangani va mijozga tegishli Limit belgilanganligi yoki verifikatsiya va Limit belgilash rad etilganligi haqida ma'lumot beriladi.

Mijoz ushbu bilan shuni anglaydi va rozi bo'ladiki, UZUM NASIYA Platformasi o'tkazilgan skoring natijalariga ko'ra mijozga rad javobini berishga haqli va bunday holatda mijozga UZUM NASIYA Platformasidan foydalanish hamda tegishli Limit olish imkoniyati taqdim etilmaydi.

Limit olingandan so'ng, mijoz tasdiqlangan Limit miqdori doirasida tegishli kredit mahsulotlariga ariza rasmiylashtirish huquqiga ega bo'ladi.

Mazkur bandeda ko'rsatilgan barcha harakatlar tegishli Interfeysdagi Tasdiqlash oynasi orqali amalga oshiriladi.

- 4.3. Shartnomaning 4.2-bandining 4.2.1–4.2.5 kichik bandlarida nazarda tutilgan harakatlarning amalga oshirilishi tegishli voyaga yetgan jismoniy shaxs tomonidan mazkur Shartnomani unda belgilangan shartlar, tartib va hajmda tuzishga so'zsiz va shartsiz rozilik (aksept) berilganligini anglatadi.

Mazkur Shartnomani aksept qilgan holda, mijoz quyidagilarga rozilik bildiradi:

- 4.3.1. Operator va/yoki Platformaning tegishli ishtirokchisi tomonidan mijozning Shaxsiy ma'lumotlarini, shu jumladan Kredit tarixini va Bank sirini, mazkur Shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan hajmda yig'ish, qayta ishlash va uzatishga (zarur hollarda transchegaraviy uzatishni ham o'z ichiga olgan holda), O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida", "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida" hamda "Bank siri to'g'risida"gi qonunlari talablariga muvofiq.

Ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va uzatish mijoz tomonidan Maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish siyosatini aksept qilish asosida amalga oshiriladi, ushbu siyosat tegishli UZUM NASIYA interfeysida yoki Operatorning rasmiy saytida quyidagi manzil orqali mavjud <https://uzumnasiya.uz/>.

- 4.3.2. Platformaning tegishli ishtirokchisi tomonidan mijozning Shaxsiy kabinetiga birlashtirilgan Kartalardan rekurrent to'lovlar doirasida yuzaga kelgan Joriy yoki Muddati o'tgan qarzdorlikni qoplash uchun zarur bo'lgan summani so'zsiz (akseptsiz) avtomatik yechib olishga rozilik beradi.

- 4.3.3. Platformaning tegishli ishtirokchisi tomonidan mijozning barcha banklarda (O'zbekiston Respublikasi hududidagi) ochilgan hisobvaraqlari (Kartalari)dan yuzaga kelgan muddati o'tgan qarzdorlikni qoplash uchun zarur bo'lgan summani so'zsiz (akseptsiz) avtomatik yechib olishga rozilik beradi.

- 4.4. Operator 4.2-band kichik bandlarida nazarda tutilgan istalgan bosqichda, mazkur band talablaridan birortasi bajarilmagan taqdirda, shuningdek ushbu bo'limda nazarda tutilmagan boshqa asoslar bo'yicha ham, o'z ixtiyoriga ko'ra, mijozga UZUM NASIYA Platformasiga kirish huquqini va tegishli kredit mahsulotlarini taqdim etishni rad etishga haqli, agar Platformadan maqsadsiz foydalanish ehtimoli mavjud bo'lsa, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) firibgarlik operatsiyalarini amalga oshirish yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzuvchi harakatlar sodir etish, yoxud Qoidalar buzilgan hollarda.

- 4.5. Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab mijozda yuzaga keladigan huquqlar va talablar mijoz tomonidan uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas, mazkur Shartnomada to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

- 4.6. Mijoz har qanday Farmoyishlar va autentifikatsiya ma'lumotlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mustaqil ravishda to'liq javobgar hisoblanadi.

Bunday Farmoyishlar mijoz tomonidan tegishli UZUM NASIYA interfeysining shaxsiy kabinetidagi Tasdiqlash oynasi orqali, Operatorning dasturiy-texnik vositalaridan foydalangan holda shakllantiriladi va Platformaning tegishli ishtirokchilariga yuboriladi.

5. SHARTNOMA TUZILGANIDAN KEYINGI UMUMIY SHARTLAR

- 5.1. Tomonlar mazkur Shartnoma doirasida foydalaniladigan axborotni qayta ishlash, himoya qilish va uzatish tizimlari ishonchli, samarali va xavfsiz ishlashni ta'minlash, ruxsatsiz kirishdan himoyalash hamda elektron Farmoyishlarni haqiqiylikini tasdiqlash uchun yetarli ekanligini e'tirof etadilar.
- 5.2. Mijoz ushbu bilan xabardor qilinadiki, UZUM NASIYA Platformasidan foydalanish, mazkur Shartnomada ko'rsatilgan shartlarga rioya qilinmagan taqdirda, mijozning shaxsiy kabinetiga ruxsatsiz kirish xavfi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.
- 5.3. Mijozga masofaviy xizmat ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlari hamda Platformaning tegishli ishtirokchilarining ichki normativ hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 5.4. Mijoz o'zining shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlarini, abonent raqamini va individual OTP kodlarini uchinchi shaxslarga oshkor etmaslik majburiyatini oladi.

Mijozda o'z ma'lumotlarining xavfsizligi yoki ular uchinchi shaxslar tomonidan ruxsatsiz foydalanilayotganligi yuzasidan shubha paydo bo'lgan taqdirda, mijoz bu haqda Operatorni darhol har qanday mavjud usul orqali xabardor qilishi shart.
- 5.5. Mazkur Shartnoma 4-bo'limda ("PLATFORMAGA KIRISHNI TAQDIM ETISH VA SHARTNOMANI TUZISH TARTIBI") nazarda tutilgan tartibda tuzilgan taqdirda, mijoz servis xususiyatiga ega bo'lgan xabarlarni bir vaqtning o'zida yoki alohida tarzda quyidagi kanallar orqali olishga rozilik bildiradi: elektron pochta manzili (agar u shaxsiy kabinetda ko'rsatilgan bo'lsa) / SMS xabarnomalar / push-bildirishnomalar / ilovalar / messenjerlar / boshqa usullar orqali, ro'yxatdan o'tishda ko'rsatilgan abonent raqamiga va/yoki mijozning shaxsiy kabinetiga. Mazkur xabarlarni olishdan mijozning voz kechishi texnik sabablar tufayli mumkin emas.
- 5.6. Operator mijozning roziligi qonunchilik talablariga muvofiq tarzda olingan taqdirda, mijozga reklama xususiyatidagi xabarlarni yuborishga haqli (SMS va/yoki push-bildirishnomalar, ilovalar, smartfon messenjerlari, telefon qo'ng'iroqlari yoki boshqa usullar orqali, mijoz tomonidan ko'rsatilgan abonent raqami, elektron pochta manzili yoki shaxsiy kabinetga. Mijoz istalgan vaqtda o'z Qurilmasidagi tegishli sozlamalar bo'limi orqali obuna parametrlarini o'zgartirish yo'li bilan reklama xabarlarini olishdan voz kechish huquqiga ega.
- 5.7. Mijozda Muddati o'tgan va/yoki Joriy qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda, Operator mijozga xabarlar yuborishga haqli, mijoz esa ularni qabul qilishga rozilik bildiradi: SMS, pochta, elektron pochta, push-bildirishnomalar, telefon aloqasi, interaktiv ovozli xabar tizimlari (IVR va shunga o'xshash tizimlar) yoki Operator va/yoki Platformaning tegishli ishtirokchisining telefon orqali xabardor qilish markazlari (kontakt yoki call-markazlar) orqali.

Mijozning yuqoridagi xabarlar/ogohlantirishlarni olishdan voz kechishi mumkin emas, chunki bunday xabarlar mijozning Joriy va/yoki Muddati o'tgan qarzdorlik bo'yicha majburiyatlarini bajarishni ta'minlash uchun zarur vosita hisoblanadi.

6. TOMONLARNING HUQUQLARI

- 6.1. **Operator quyidagi huquqlarga ega:**
 - 6.1.1. Mijozning faoliyatini ro'yxatdan o'tish va mazkur Shartnomani tuzish vaqtida tekshirish hamda Shartnoma amal qilish muddati davomida uni doimiy ravishda nazorat qilish, mijoz faoliyatining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Qoidalar yoki Shartnoma talablariga muvofiqlikini, shu jumladan mijozning Shartnomaning 9-bo'limida ("MIJOZNING TASDIQLARI VA KAFOLATLARI") ko'rsatilgan tasdiqlar va kafolatlarga muvofiqlikini tekshirish.
 - 6.1.2. Quyidagi hollarda mijoz bilan mazkur Shartnomani va/yoki kredit shartnomasini hamda Maxsus shartlarni tuzishni rad etish, shuningdek Platformaning tegishli ishtirokchilari tomonidan taqdim etiladigan har qanday va/yoki barcha kredit mahsulotlarini taqdim etishni rad etish:

- i. Autentifikatsiya, Pre-KYC yoki takroriy KYC jarayonlaridan muvaffaqiyatsiz o'tilgan taqdirda va/yoki pre-skoring yoki Kreditor skoringi jarayonlaridan muvaffaqiyatsiz o'tilgan taqdirda.
 - ii. Mijoz faoliyati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Qoidalar yoki Shartnoma talablariga nomuvofiq bo'lgan taqdirda, shu jumladan mijozning Shartnomaning 9-bo'limida ("MIJOZNING TASDIQLARI VA KAFOLATLARI") ko'rsatilgan tasdiqlar va kafolatlarga nomuvofiq aniqlangan hollarda.
- 6.1.3. Quyidagi hollarda Operator mijozni UZUM NASIYA Platformasidan uzishga, Platformadan foydalanish huquqini, kirishni va undan foydalanishni to'xtatib turishga, UZUM NASIYA ilovasidan foydalanishni bloklashga yoki boshqa tarzda Shartnoma bo'yicha majburiyatlarining bajarilishini to'xtatib turishga haqli (keyingi o'rinlarda — "Blokash"):
- i. Agar Operator yoki Platformaning boshqa ishtirokchisi tomonidan mijoz faoliyati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Qoidalar yoki Shartnoma talablariga, shu jumladan Shartnomaning 9-bo'limida ("MIJOZNING TASDIQLARI VA KAFOLATLARI") ko'rsatilgan tasdiqlar va kafolatlarga nomuvofiq ekanligi aniqlansa).
 - ii. Operator yoki Platformaning boshqa ishtirokchisi tomonidan Platforma kontragentlari, davlat organlari yoki uchinchi shaxslardan tegishli so'rovlar (e'tirozlar, farmoyishlar) olingan taqdirda, alohida operatsiyalar bo'yicha.
 - iii. UZUM NASIYA Platformasidan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik yoki shubhali operatsiyalar yoxud boshqa noqonuniy faoliyat sodir etilgan yoki sodir etilishi mumkinligi haqida asosli shubhalar mavjud bo'lsa, shuningdek Qoidalar buzilgan taqdirda.
 - iv. Mijozning shaxsiy kabinetiga ruxsatsiz kirish amalga oshirilgan yoki amalga oshirilishi mumkin degan yetarli asoslar mavjud bo'lsa.
 - v. Operator uchun nazorat qilib bo'lmaydigan xavflar yuzaga kelganda, shu jumladan UZUM NASIYA brendi yoki Platformaning tegishli ishtirokchisining ishchanlik obro'siga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog'liq risklar mavjud bo'lsa.
- Shu bilan birga:
- a. Mijozning Blokash amalga oshirilgan paytgacha yuzaga kelgan qarzdorligi to'liq hajmda saqlanib qoladi.
 - b. UZUM NASIYA Platformasiga kirishning bloklanishi mijozni berilgan kredit mahsulotlari bo'yicha qarzdorlikni, hisoblangan komissiyalarni/penyalarni (agar qo'llanilsa) hamda mazkur Shartnomada nazarda tutilgan boshqa to'lovlarni so'ndirish majburiyatidan ozod etmaydi.
 - c. Mijozga Platformaga kirishsiz, boshqa usullar orqali qarzdorlikni so'ndirish imkoniyati taqdim etiladi.
 - d. Mijozning UZUM NASIYA Platformasiga kirishi bloklangan taqdirda, mijoz qarzdorlikni quyidagi usullar orqali so'ndirishi mumkin:
 - 1) Platforma tomonidan yuborilgan xabarda ko'rsatilgan rekvizitlarga pul mablag'larini o'tkazish orqali, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi banklarining mobil ilovalari va internet-banking xizmatlaridan foydalangan holda;
 - 2) Operatorning kontakt markazi yoki qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish orqali, to'lov uchun dolzarb rekvizitlar va yo'riqnomalarni olish;
 - 3) Shaxsiy kabinetga avtorizatsiyani talab qilmaydigan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa usullar orqali.

- e. Tegishli Platforma ishtirokchisi qarzdorlik summasini va u bilan bog'liq xarajatlarni majburiy undirish uchun O'zbekiston Respublikasi sud organlariga murojaat qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- f. Mijoz tomonidan rekurrent to'lovlar doirasida berilgan Topsiriq asosida, mijozning shaxsiy kabinetiga biriktirilgan har qanday Kartalaridan yuzaga kelgan Joriy qarzdorlikni qoplash uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini tegishli Platforma ishtirokchisi foydasiga yechib olishni ta'minlash.
- g. Mijozning O'zbekiston Respublikasi hududidagi istalgan banklarda ochilgan barcha hisobvaraqlari (Kartalari)dan yuzaga kelgan Muddati o'tgan qarzdorlikni qoplash uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini tegishli Platforma ishtirokchisi foydasiga yechib olishni ta'minlash.
- h. UZUM NASIYA Platformasini takomillashtirish yoki undagi xatolarni bartaraf etish maqsadida rejalashtirilgan yoki rejalashtirilmagan profilaktik ishlarni amalga oshirish, bu haqda mijozni Operator uchun mavjud bo'lgan har qanday usul orqali oldindan xabardor qilgan holda.
- i. Shartnoma talablarini inobatga olgan holda, elektron hujjat aylanishining samaradorligi va xavfsizligini oshirish maqsadida UZUM NASIYA Platformasining texnologik jarayonlarini o'zgartirish.

6.1.4. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun uchinchi shaxslarni ular bilan tuzilgan tegishli shartnomalar asosida jalb qilish, bunda ularning harakatlari (yoki harakatsizligi) uchun hamda Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning bajarilishi uchun mijoz oldida javobgar bo'lib qolgan holda.

6.1.5. Platformaning tegishli ishtirokchilari va UZUM ekotizim hamkorlari xizmatlarini ilgari surish, shuningdek UZUM NASIYA interfeysi orqali mijozlarga UZUM ekotizim mahsulotlarini tegishli shartnomalar/ofertalar asosida taqdim etish.

6.1.6. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Shartnomada nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

6.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

6.2.1. Platforma xizmatlaridan foydalanish, shu jumladan:

- i. Tegishli kredit mahsulotlarini olish, shuningdek tegishli Platforma ishtirokchisi bilan kredit shartnomalari va/yoki OSShlarni rasmiylashtirish va tuzish imkoniyati;
- ii. Rasmiylashtirilgan kredit mahsulotlari bo'yicha qarzdorlikni (shu jumladan muddatidan oldin) so'ndirish, boshqarish va/yoki monitoring qilish imkoniyati tegishli UZUM NASIYA interfeysi yoki Bank-hamkor interfeysi orqali;
- iii. Tuzilgan kredit shartnomalari va OSShlarni monitoring qilish, shuningdek "Savdo mikroqarzi" va "**Savdo bo'yicha bo'lib to'lash**" kredit mahsulotlari doirasida xarid qilingan tovarlar to'g'risida ma'lumot olish imkoniyati.

7. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

7.1. Operator quyidagilarga majbur:

7.1.1. Mijozga UZUM NASIYA Platformasidan foydalanish huquqini berish orqali tegishli UZUM NASIYA interfeysiga kirishni ta'minlash, mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida.

7.1.2. Mazkur Shartnomada nazarda tutilgan doirada va shartlarda mijozga Platforma xizmatlarini ko'rsatish.

7.1.3. Tegishli kredit mahsulotlari doirasida mijozga taqdim etilgan pul mablag'larini tuzilgan kredit shartnomalari yoki OSShlar hamda ularga tegishli Maxsus shartlarga muvofiq Platformaning tegishli ishtirokchilarining hisobvaraqlariga o'tkazilishini ta'minlash.

- 7.1.4. Mijoz tomonidan tuzilgan kredit shartnomalari/OSShlar shartlari va mijozning ushbu shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarishi to'g'risidagi ma'lumotlarni (kredit axborotini) tegishli Kredit byurosiga taqdim etilishini ta'minlash.
 - 7.1.5. Mazkur Shartnoma doirasida mijoz tomonidan UZUM NASIYA Platformasidan foydalanish jarayonida texnik qo'llab-quvvatlash va maslahat yordamini ta'minlash.
 - 7.1.6. UZUM NASIYA Platformasining uzluksiz (kun davomida) ishlashini ta'minlash, profilaktika ishlari va xatolarni bartaraf etish uchun ruxsat etilgan tanaffuslar bundan mustasno.
 - 7.1.7. UZUM NASIYA Platformasidagi nosozliklar va xatolarni bartaraf etish.
 - 7.1.8. Operator ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan mijozning shaxsiy ma'lumotlari hamda boshqa ma'lumotlar, shu jumladan Operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarning himoyasini ta'minlash, qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.
 - 7.1.9. Barcha Operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan muddatlar davomida saqlash.
 - 7.1.10. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Shartnomada nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish.
- 7.2. **Mijoz quyidagilarga majbur:**
- 7.2.1. Tegishli kredit mahsuloti doirasida olingan mablag'lar hisobidan Operator mukofotini to'lash.
 - 7.2.2. Olingan kredit mahsulotlari bo'yicha qarzdorlikni To'lov jadvalida ko'rsatilgan muddatlarga muvofiq o'z vaqtida so'ndirish.
 - 7.2.3. Abonent raqami va boshqa shaxsiy ma'lumotlar o'zgargan taqdirda yoki mijozning mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar yuzaga kelganda, bu haqda 3 (uch) kalendar kun ichida Operatorni xabardor qilish.

8. EKOTIZIM MAHSULOTLARINI TAQDIM ETISH XUSUSIYATLARI

- 8.1. Mazkur Shartnomani aksept qilgan holda, mijoz UZUM Kartasini ochishga va KBXSH tuzishga, shuningdek UZUM NASIYA Platformasi doirasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan UZUM ekotizimining boshqa mahsulotlarini tegishli UZUM ekotizim hamkorlaridan olishga rozilik bildiradi.
- 8.2. Muayyan UZUM ekotizim mahsulotidan foydalanish tartibi UZUM ekotizim hamkorlari tomonidan ular bilan tuziladigan tegishli shartnomalar/ofertalar asosida belgilanadi.

9. MIJozNING TASDIQLARI VA KAFOLATLARI

Mijoz quyidagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:

- 9.1. Mijoz O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq muomala layoqatiga ega shaxs hisoblanadi va mazkur Shartnomani tuzish hamda undan kelib chiqadigan yuridik majburiyatlarni olishga qodir.
- 9.2. Mazkur Shartnoma tuzilayotgan paytda mijoz tomonidan ko'rsatilgan elektron pochta manzili va abonent raqami haqiqatan mijozga tegishli yoki u tomonidan qonuniy asosda foydalaniladi.
- 9.3. Mazkur Shartnomani tuzish va/yoki bajarish jarayonida mijoz Operatorga ishonchli ma'lumotlarni taqdim etgan va/yoki taqdim etadi (shu jumladan ularni yangilab boradi), bu ma'lumotlar mijoz bilan aloqa qilish, unga bildirishnomalar yuborish hamda yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshiruvchi shaxs sifatida mijozni aniq identifikatsiya qilish uchun zarur).

Ma'lumotlarni (shu jumladan Shaxsiy ma'lumotlarni) taqdim etgan holda, mijoz ularning ishonchli (aniq, xatolarsiz va hokazo) ekanligini tasdiqlaydi va kafolatlaydi. Mijoz noto'g'ri, xato, ishonchsiz yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etganligi uchun javobgar hisoblanadi.

- 9.4. Mazkur Shartnoma matnining mazmuni va mohiyatini to'liq tushunadi hamda 4-bo'limda ("PLATFORMAGA KIRISHNI TAQDIM ETISH VA SHARTNOMANI TUZISH TARTIBI") nazarda tutilgan tartibda uni tuzar ekan, uning shartlariga so'zsiz, shartsiz va qaytarib bo'lmaydigan tarzda rozilik bildiradi va shu orqali o'z irodasini erkin ifoda etadi.
- 9.5. Mazkur Shartnoma bilan mijoz zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni vijdonan va lozim darajada bajaradi.
- 9.6. Mijoz mazkur kafolatlar va tasdiqlarga zid bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday holatlar yuzaga kelganda bu haqda Operatorni xabardor qilish majburiyatini oladi.
- 9.7. Agar Operator yoki Platformaning tegishli Ishtirokchisida mijoz tomonidan yuqorida ko'rsatilgan kafolatlar va tasdiqlarga rioya qilinmaganligi sababli zararlar yuzaga kelsa, mijoz tegishli Tomonga yetkazilgan zararlarini to'liq hajmda 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida, tegishli talabni olgan kundan boshlab, qoplash majburiyatini oladi.
- 9.8. Mazkur bo'limda nazarda tutilgan kafolatlar, tasdiqlar va majburiyatlarning buzilishi Tomonlarning istalgan biri uchun ushbu Shartnoma doirasida har qanday xizmatni taqdim etishni rad etish va/yoki mijoz faoliyatini cheklash, to'xtatib turish, bloklash, bekor qilish yoki boshqa choralarni qo'llash uchun yetarli asos hisoblanadi.

10. OPERATOR TOMONIDAN KAFOLATLARNING YO'QLIGI

- 10.1. Operator hech qanday holatda mijoz bilan hamkorlik munosabatlari, qo'shma korxonalar, agentlik yoki mehnat munosabatlarini o'rnatmaydi.
- 10.2. Operator hech qanday holatda mijozning majburiyatlari bo'yicha kafil yoki poruchitel sifatida chiqmaydi va majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning boshqa har qanday vositalarini taqdim etmaydi.
- 10.3. Operator hech qanday holatda mijozning soliq agenti sifatida chiqmaydi hamda mijoz nomidan hech qanday soliqlar, yig'imlar va/yoki boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va/yoki to'lashni amalga oshirmaydi, bunday majburiyatlar O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq mijozda yuzaga kelishi mumkin.

11. HUQUQLARNI O'TKAZISH

- 11.1. Mijoz mazkur Shartnoma doirasidagi har qanday huquq va majburiyatlarini Platformaning barcha tegishli Ishtirokchilarining oldindan rozilgisiz uchinchi shaxslarga o'tkazishga yoki ulardan voz kechishga haqli emas.
- 11.2. Operator mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan ushbu Shartnoma doirasidagi har qanday talab huquqlarini uchinchi shaxsga mijozni xabardor qilmasdan va/yoki uning rozilgisiz o'tkazishga haqli.

12. JAVOGBARLIK

- 12.1. Operator hech qanday holatda Merchant tomonidan sotilayotgan Tovarlarining sifati uchun, shuningdek Mijoz tomonidan ushbu Merchantdan Tovarlarini xarid qilish jarayonida va shu bilan bog'liq holda yuzaga keladigan Merchantning Mijoz oldidagi majburiyatlari uchun javobgar emas. Shuningdek, Tovarlar tegishli Kredit mahsuloti hisobidan xarid qilingan bo'lsa ham, Operator Merchantlar tomonidan o'z majburiyatlarini bajarish, jumladan Tovarlarining mazmuni, ishonchliligi, amaliy qo'llanishi va boshqa jihatlar uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 12.2. Operator va Platformaning tegishli Ishtirokchilari Mijoz tomonidan Kredit mahsuloti orqali xarid qilingan Tovarlardan noto'g'ri foydalanish natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.
- 12.3. Operator tashqi veb-saytlarning mazmuni va ishlashi uchun javobgar emas.
- 12.4. Operator Mijozning abonent raqami boshqa shaxsga o'tganligi natijasida yuzaga kelgan zararlar uchun javobgar emas, shu jumladan Mijozning aybi bilan unga ruxsatsiz kirish natijasida, Mijoz qurilmasiga o'rnatilgan zararli dasturlar orqali yoki abonent raqami uzoq muddat (3 oydan ortiq) foydalanilmaganligi sababli yuzaga kelgan holatlar bundan mustasno emas.
- 12.5. Operator Mijoz tomonidan autentifikatsiya jarayonida va/yoki autentifikatsiya ma'lumotlarini o'rnatishda taqdim etilgan ma'lumotlarning aniqligi va to'g'riligi uchun javobgar emas.

- 12.6. UZUM NASIYA Platformasi, MBX va Mijoz Qurilmasi o'rtasidagi aloqa kanali ishlashi tegishli Tomonlarning javobgarlik zonasiga kiradi va Operator, Bank-hamkor yoki Mijoz Qurilmasiga tegishli uskunalarning ishlash doirasi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, agar aloqa kanalining mavjud emasligi yoki uning noto'g'ri ishlashi uchinchi shaxslar tomonidan o'z majburiyatlarining lozim darajada bajarilmaganligi oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, Tomonlar bunday holatlar uchun javobgarlikdan ozod etiladi.
- 12.7. Operator uskunalar, dasturiy ta'minot, aloqa kanallari yoki MUNIS tizimidagi texnik nosozliklar, elektr ta'minotidagi uzilishlar, Internet tarmog'ining mahalliy, milliy yoki xalqaro segmentlaridagi global uzilishlar, marshrutlash tizimlari va/yoki domen nomlari tizimidagi nosozliklar, DDoS hujumlari hamda Internet resurslari va aloqa kanallarining ishlashiga ta'sir qiluvchi boshqa noqonuniy harakatlar natijasida yuzaga kelgan kechikishlar, uzilishlar, nosozliklar yoki boshqa cheklovlar uchun javobgar emas, agar bunday holatlar Operator aybi bilan yuzaga kelmagan bo'lsa.
- 12.8. Mijoz o'z Qurilmasidan Mijoz nomidan amalga oshirilgan uchinchi shaxslarning har qanday harakatlari uchun, agar bunday harakatlar Mijoz aybi bilan yuzaga kelgan ruxsatsiz kirish (shu jumladan OTP va/yoki autentifikatsiya ma'lumotlariga kirish) natijasida yoki Qurilmaga o'rnatilgan zararli dasturlar orqali sodir etilgan bo'lsa, barcha xavf va javobgarlikni mustaqil ravishda o'z zimmasiga oladi.
- 12.9. Mazkur Shartnomada tartibga solinmagan holatlarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.
- 12.10. Hech bir Tomon hech qanday holatda mazkur Shartnoma doirasida yoki u bilan bog'liq holda quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi: (a) har qanday bilvosita zararlar yoki boy berilgan foyda; (b) xarajatlarning oshishi, qiymatning kamayishi yoki biznes, ishlab chiqarish, daromad yoki foydaning yo'qolishi; (c) obro' yoki goodwill yo'qotilishi.

13. FORS-MAJOR

- 13.1. Tomonlardan har biri mazkur Shartnoma doirasida o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi, agar bunday bajarmaslik yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari natijasida yuzaga kelgan bo'lsa.
- 13.2. Yengib bo'lmaydigan kuch holatlari deganda, tegishli Tomon tomonidan oldindan ko'rib chiqilishi yoki mavjud vositalar bilan oldi olinishi mumkin bo'lmagan favqulodda hodisalar yoki sharoitlar tushuniladi.

Bunday favqulodda hodisalarga, xususan: ish tashlashlar, suv toshqinlari, yong'inlar, zilzilalar va boshqa tabiiy ofatlar, urushlar, harbiy harakatlar, O'zbekiston Respublikasi yoki boshqa davlatlar davlat organlarining harakatlari, shuningdek Tomonlarning oqilona nazoratidan tashqarida bo'lgan boshqa har qanday holatlar kiradi.
- 13.3. Amaldagi qonunchilik yoki normativ-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlar, agar ular Tomonlardan biriga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir etsa ham, yengib bo'lmaydigan kuch holatlari deb hisoblanmaydi. Biroq, agar bunday o'zgarishlar Tomonlardan biriga mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga imkon bermasa, Tomonlar ushbu muammoni bartaraf etish tartibi bo'yicha zudlik bilan qaror qabul qilishlari va Shartnoma shartlarini davom ettirish imkoniyatini ta'minlashlari shart.

14. INTELLEKTUAL MULK

- 14.1. UZUM NASIYA Platformasida, tegishli UZUM NASIYA interfeysi orqali yoki Operator saytida joylashtirilgan barcha kontent (shu jumladan matnli ma'lumotlar va grafik tasvirlar) bo'yicha mutlaq huquqlar ularning tegishli huquq egalariга tegishli.
- 14.2. Mijoz UZUM NASIYA ilovasida mavjud bo'lgan har qanday URL manzillarni yoki unda joylashtirilgan har qanday kontent, logotiplar, grafikalar hamda tegishli huquq egalariining individuallashtirish vositalarini oldindan yozma roziliksiz nusxalash, taqlid qilish, o'zgartirish, tizimlashtirish, yaratish, to'ldirish yoki foydalanmaslik majburiyatini oladi.

- 14.3. Mazkur ma'lumotlar va tasvirlardan noqonuniy foydalanish O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

15. SHAXSIY MA'LUMOTLAR, BANK SIRI VA KREDIT TARIXI

- 15.1. Mazkur Shartnomani bajarish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida", "Bank siri to'g'risida" va "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq, Mijoz Operator va Platformaning tegishli Ishtirokchilariga Mijozning Shaxsiy ma'lumotlari, Bank siri va Kredit tarixiga oid har qanday ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash, shu jumladan avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash huquqini beradi. Bunga ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, shaxsdan ajratish (anonimlashtirish) va yo'q qilish kiradi. Shuningdek, Mijoz mazkur Shartnoma doirasida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida Shaxsiy ma'lumotlar, Bank siri va Kredit tarixini uchinchi shaxslarga uzatishga o'z roziligi va farmoyishini beradi.
- 15.2. Shaxsiy ma'lumotlar, Bank siri va Kredit tarixini qayta ishlash jarayonida Platformaning barcha tegishli Ishtirokchilari ularning maxfiyligini ta'minlaydi hamda Shaxsiy ma'lumotlar, Bank siri va Kredit tarixini noqonuniy yoki tasodifiy kirish, yo'q qilish, o'zgartirish, bloklash, nusxalash, taqdim etish, tarqatish va boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilish uchun zarur huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'radi.
- 15.3. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash tartibi UZUM NASIYA interfeysida va/yoki Operatorning quyidagi saytida joylashtirilgan Maxfiylik siyosati va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish siyosatida belgilangan: <https://uzumnasiya.uz/>.

16. TOMONLAR O'RTASIDAGI KOMMUNIKATSIYA

- 16.1. Mijoz mazkur bilan barcha tegishli Platforma Ishtirokchilari Operatorni mazkur Shartnoma ijrosi bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha Mijoz bilan har qanday kommunikatsiyalarni amalga oshirishga vakolatli etib tayinlaganiga rozilik bildiradi.
- 16.2. Operator Mijozga bildirishnomalar va xabarlarni ro'yxatdan o'tishda ko'rsatilgan elektron pochta manziliga va/yoki Shaxsiy kabinetdagi "Bildirishnomalar" yoki "Xabarlar" bo'limlariga yoki UZUM NASIYA ilovasi funksionalida nazarda tutilgan boshqa shunga o'xshash bo'limlarga yuboradi, shuningdek SMS-xabarlar / push-bildirishnomalar / ilovalar / messenjerlar orqali yoki boshqa usullar bilan ro'yxatdan o'tishda ko'rsatilgan abonent raqamiga va/yoki Mijozning Shaxsiy kabinetiga yuboradi.
- 16.3. Savollar yuzaga kelganda, Mijoz Operatorning qo'llab-quvvatlash xizmatiga yoki quyidagi manzilga murojaat qilishi lozim: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Asaka MFY, Mustaqillik ko'chasi 1-o'tish, 8-uy, yoki Shaxsiy kabinet orqali Operator bilan chat orqali.
- 16.4. Operator tomonidan Mijozning murojaatlari va e'tirozlariga berilgan javoblar, agar ular SMS-xabarlar / push-bildirishnomalar / ilovalar / messenjerlar orqali yoki boshqa usullar bilan ro'yxatdan o'tishda ko'rsatilgan abonent raqamiga va/yoki Mijozning Shaxsiy kabinetiga, Mijoz tomonidan ko'rsatilgan elektron pochta manziliga yuborilgan bo'lsa, yoxud yozma shaklda Mijozning pochta manziliga (agar Mijoz tomonidan shunday ko'rsatma berilgan bo'lsa) yuborilgan bo'lsa, tegishli tarzda yetkazilgan deb hisoblanadi.

17. NIZOLARNI HAL ETISH, QO'LLANILADIGAN QONUNCHILIK, BO'LINUVCHANLIK

- 17.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning lozim darajada bajarilmasligi bilan bog'liq barcha nizolarni sudgacha tartibda hal etish uchun UZUM NASIYA Platformasidan yuboriladigan SMS-xabarlar, elektron pochta, push-bildirishnomalar, interaktiv ovozi xabarlar yoki telefon orqali xabardor qilish markazi xizmatlari qo'llaniladi.
- Mijoz Operator tomonidan nizoni sudgacha tartibda hal etish uchun qog'oz shaklidagi murojaat yuborilishi talab etilmasligiga rozilik bildiradi. Da'voni ko'rib chiqish muddati — Mijoz tomonidan da'vo olingan kundan boshlab 3 (uch) kunni tashkil etadi.

- 17.2. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq har qanday nizolar sudgacha tartibda hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda, Operator o'z ixtiyoriga ko'ra nizoni ko'rib chiqish uchun quyidagilarga topshiradi:
 - 17.2.1. Mirzo Ulug'bek tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sud;
 - 17.2.2. Mirobod tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sud;
 - 17.2.3. Uchtepa tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sud;
 - 17.2.4. Shayxontohur tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sud;
 - 17.2.5. Yakkasaroy tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sud
 - 17.2.6. yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarning joylashgan joyi bo'yicha boshqa tegishli sud.
- 17.3. Operator, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud buyrug'i chiqarish to'g'risida ariza berish, soddalashtirilgan sud ish yuritish tartibida yoki notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan ijro yozuvlari asosida qarzni bahssiz tartibda undirish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 17.4. Boshqa barcha masalalar bo'yicha, huquqlari buzilgan deb hisoblovchi tegishli Tomon nizoni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli sudga topshiradi.
- 17.5. Mazkur Shartnoma doirasida yoki u bilan bog'liq yuzaga keladigan barcha nizolarni hal etishda qo'llaniladigan huquq — O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hisoblanadi.
- 17.6. Sud tomonidan mazkur Shartnomaning ayrim qoidalari haqiqiy emas deb topilishi, uning qolgan qoidalarining haqiqiylikiga ta'sir ko'rsatmaydi.

18. SHARTNOMANING AMAL QILISHI VA SHARTNOMAGA O'ZGARTISHLAR KIRITISH

- 18.1. Mazkur Shartnoma Mijoz tomonidan uning shartlari aksept qilingan paytdan boshlab (keyingi o'rinlarda — Shartnoma tuzilgan sana), Shartnomaning 4-bo'limida ("PLATFORMAGA KIRISHNI TAQDIM ETISH VA SHARTNOMANI TUZISH TARTIBI") nazarda tutilgan tartibda kuchga kiradi va noma'lum muddat davomida amal qiladi, ya'ni u mazkur Shartnoma qoidalariga muvofiq to'xtatilmaguncha yoki bekor qilinmaguncha.
- 18.2. Operator mazkur Shartnomaning har qanday bandlari va/yoki butun matniga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Bunday o'zgartirishlar Operator saytida yoki UZUM NASIYA interfeysida yoki Bank-hamkor interfeysida Shartnomaning yangi tahririni e'lon qilish orqali amalga oshiriladi.
- 18.3. Operator Shartnomaning yangi tahririni kuchga kirish sanasidan kamida 7 (yetti) kalendar kun oldin Mijozga xabar berish majburiyatini oladi. Xabarnoma Operatorada mavjud bo'lgan Mijoz rekvizitlari orqali yuboriladi yoki Shartnomaning yangi tahriri Mijozning Shaxsiy kabinetida aks ettiriladi.
- 18.4. Agar Mijoz Operator tomonidan yuborilgan xabarnoma olingan kundan boshlab 7 (yetti) kalendar kun ichida yangi tahrirdagi Shartnoma shartlarini qabul qilishdan aniq rad javobini bildirmasa, Shartnomaning yangi tahriri Operator saytida yoki tegishli interfeyslarda ko'rsatilgan sana asosida kuchga kiradi.
- 18.5. Agar Mijoz Shartnomaning yangi tahririni qabul qilishdan bosh tortsa, u UZUM NASIYA Platformasidagi Shaxsiy kabinetini tegishli bo'limda ko'rsatilgan yo'riqnomalarga muvofiq o'chirishi shart. Bu holat mazkur Shartnomaning amal qilishini tugatish sifatida baholanadi, biroq 19.5-band talablariga rioya qilingan taqdirda.
- 18.6. Agar mazkur Shartnoma matniga kiritilgan o'zgartirishlar Tomonlarning huquq va majburiyatlariga ta'sir qilmasa hamda Shartnomaning muhim shartlariga hech qanday ta'sir ko'rsatmasa (masalan, grammatik, stilistik, punktuatsion xatolarni tuzatish, hujjatning formatini, dizaynini yoki ko'rinishini o'zgartirish va shu kabi boshqa o'zgartirishlar), bunday o'zgartirishlar Operator saytida yoki tegishli UZUM NASIYA interfeysida yoki Bank-hamkor interfeysida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Bunday o'zgartirishlarga Shartnomaning 18.3-bandida nazarda tutilgan qoidalar tatbiq etilmaydi va shunga ko'ra Operator Mijozni bu haqda xabardor qilish majburiyatiga ega emas.

19. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

- 19.1. Operator quyidagi hollarda mazkur Shartnomani bekor qilish huquqiga ega:
- 19.1.1. Mijoz mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini buzsa yoki Shartnomada nazarda tutilgan boshqa asoslar yuzaga kelsa, bunday buzilish sabablarini bartaraf etmaguncha.
 - 19.1.2. Agar bunday buzilish tuzatib bo'lmaydigan bo'lsa yoki tuzatilishi mumkin bo'lsa-da, Operator tomonidan yuborilgan yozma ogohlantirishdan keyin 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida bartaraf etilmasa.
 - 19.1.3. Mijoz joriy va/yoki muddati o'tgan qarzdorlik bo'yicha har qanday summani belgilangan muddatda to'lamasa va bunday to'lov amalga oshirilmasligi to'lovni talab qilish huquqi yuzaga kelgan kundan boshlab 30 kundan ortiq davom etsa.
- 19.2. Mijoz quyidagi hollarda Operatorni yozma ravishda xabardor qilgan holda mazkur Shartnomani darhol bekor qilish huquqiga ega:
- 19.2.1. Agar Operator ixtiyoriy yoki majburiy bankrotlik natijasida to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolsa yoki milliy yoki xorijiy bankrotlik to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq sud jarayonining subyekti bo'lsa.
 - 19.2.2. Agar Operator tomonidan sud boshqaruvchisi, ishonchli boshqaruvchi yoki boshqa vakolatli shaxs tayinlansa, u sud qarori asosida Operatorning barcha yoki bir qismi mol-mulki/aktivlari/biznesini sotish yoki boshqa tarzda tasarruf etish yoxud uni tugatish maqsadida faoliyat yuritisa.
 - 19.2.3. Mazkur Shartnomaning 18.5-bandida nazarda tutilgan hollarda.
- 19.3. Mijoz tashabbusi bilan mazkur Shartnomani bekor qilish UZUM NASIYA Platformasidagi Shaxsiy kabinetni tegishli bo'limda ko'rsatilgan yo'riqnomalarga muvofiq o'chirish orqali amalga oshiriladi.
- Shu bilan birga, Operator va Platformaning tegishli Ishtirokchilari Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini <https://uzumnasiya.uz/> manzilida joylashtirilgan Maxfiylik siyosatida belgilangan maqsadlar, tartib va shartlarga muvofiq saqlab qoladi.
- 19.4. Mazkur Shartnomaning bekor qilinishi Tomonlarni bekor qilish vaqtida mavjud bo'lgan majburiyatlar bo'yicha javobgarlikdan ozod etmaydi hamda mazkur Shartnomaga muvofiq yoki uning mazmunidan kelib chiqib amal qilishi davom etadigan boshqa huquq va majburiyatlarning amal qilishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Mazkur Shartnomaning bekor qilinish oqibatlari

- 19.5. Mazkur Shartnoma unda nazarda tutilgan har qanday asoslar bo'yicha bekor qilingan taqdirda, Mijozning joriy va/yoki muddati o'tgan qarzdorlikni so'ndirish bo'yicha barcha majburiyatlari, shuningdek Tomonlarning boshqa tegishli majburiyatlari ushbu majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar, Shartnomaning 6.1.3-bandining ikkinchi qismida nazarda tutilgan tartib va hajmda o'z kuchida qoladi.

20. OPERATOR REKVIZITLARI

“UZUM FINTECH HUB” MChJ

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Asaka MFY, Mustaqillik ko'chasi 1-o'tish, 8-uy

STIR: 309 944 314

Hisob raqami: 2020 8000 9055 7758 2001,
Toshkent sh., “Kapital Bank” ATB OPERU

MMT: 00974 **OKED:** 62 010

QQS kodi: 326010234990